


Q.Sh. Bekqulov

CHIZMACHILIK

(Geometrik chizmachilik)

1-qism



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

Q.Sh. Bekqulov

CHIZMACHILIK

(geometrik chizmachilik)

1-qism

(60111200 – “Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi”
talabalari uchun o'quv qo'llanma)

-14124/50-

Toshkent
«Nazokathon ziyo print»
2023

UO'K 744
KBK 30.11
B-52

Q.Sh. Bekqulov. Chizmachilik [O'quv qo'llanma]: - Toshkent.
Nazokathon ziyo print - 2023.- 122 bet.

Muallif:

Q.Sh.Bekqulov - Chirchiq davlat pedagogika universiteti "Muhandislik va kompyuter grafikasi" kafedrasi katta o'qituvchisi, p.f.f.d. (PhD).

Taqrizchilar:


B.B.Ko'kiyev - Chirchiq davlat pedagogika universiteti "Muhandislik va kompyuter grafikasi" kafedrasi mudiri p.f.f.d. (PhD), v.b. dotsent.

K.G.Malikov - Toshkent davlat transport universiteti informatika va kompyuter grafikasi kafedrasi p.f.f.d. (PhD), v.b. dotsent

O'quv qo'llanma "Chizmachilik" fanidan amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish va tashkil uchun ko'sratmalar berib o'tilgan. O'quv qo'llanmasi OTM larning 60111200-"Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi" bakalavr yo'nalish va 60111200-Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi bakalavriat ta'lim yo'nalishi kechki ta'lim shakli talabalar uchun "Chizmachilik" bo'yicha ta'lim olayotgan talabalar uchun mo'ljallangan bo'lib, bugungi kun talablarini hisobga olgan holda tuzildi.

O'quv qo'llanma talabalarini chizmachilik fanidagi geometrik chizmachilik, o'lcham qo'yish aylanalarini teng bo'laklarga bo'lish, qiyaliklar, serkul egri chiziqlar, nazorat savollari, nazorat uchun test va mustaqil ta'lim topshriqlarini bajarish ko'zda tutilgan. O'quv qo'llanmada talabalar bilimini mustahkamlash uchun savollar, terminlar va foydalaniladigan adabiyotlar ro'yhati keltirilgan.

ISBN 978-9910-9595-1-6



KIRISH

Jahonda ta'lim sohasidagi islohotlar jamiyat ravnaqi va taraqqiyotiga ijobiy ta'sir qilmoqda. Rivojlangan mamlakatlarning intellektual salohiyatini oshirish davlat ta'limi standartida qo'yilgan talablarga javob bera oladigan, yetuk, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashning muhim omili hisoblanadi. Ayniqsa, o'qitish samaradorligini oshirishda fanlararo integratsiya qonuniyatlarining yaratilishi, aloqadorlik tizimining tarkib topishi ta'limda istiqbolli vazifalar yechimini ta'minlashga nisbatan dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, qisqa davr ichida ulkan ijobiy o'zgarishlar ro'y berdi. Bu muvaffaqiyatlarga o'z-o'zidan erishilayotgani yo'q. Siyosatdan iqtisodni ustun qo'yilishi, inson manfaatining ustuvorligi, barcha millat vakillarining teng huquqliligi, mamlakatimizdagи tinchlik va osoyishta hayotning mavjudligi, ta'limga Davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilishi kabi islohatlar bugungi kundagi mamlakatimizning barcha sohada teskor rivojlanishiga zamin bo'lmoqda.

Hozirgi tezkor rivojlanayotgan zamonda Davlatning kuchi uning intelektual salohiyatli fuqarolari bilan o'chanadi.

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev mamlakatimiz yoshlarining huquq va manfaatlarini, shuningdek, burchlarini belgilab beruvchi yoshlarga oid Qonunni qabul qildi. Bundan tashqari 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Harakatlar strategiyasida "Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish, jumladan jismonan sog'lom, ruhiy va intellektual rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, qat'iy hayotiy nuqtayi-nazariga ega, Vatanga sodiq yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish" kabi vazifalar qo'yildi¹.

Mamlakatimiz yoshlariga nisbatan ishonch bildirib, ular kelajagimiz ekanligini Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev

¹ <http://strategy.regulation.gov.uz>.

o'z nutqlarida quyidagicha bildirib o'tgan: "Albatta, faqat zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni puxta egallagan, mustaqil fikrlaydigan, doimo el-yurt taqdiriga daxldorlik tuyg'usi bilan yashaydigan siz, aziz yoshlarimiz maydonga dadil chiqib, bugungi kunda hayotning o'zi oldimizga qo'yayotgan vazifalarni hal etishga qodirsiz"².

Oliy ta'lif tizimida tayyorlanayotgan mutaxassislariga o'sib kelayotgan yosh avlodga ta'lif va tarbiya berishda mavjud barcha resurslardan oqilona va samarali foydalanishni ta'minlash, davlat standartlari, o'quv dasturlari va o'quv uslubiy adabiyotlarni takomillashtirish, ularning yangi avlodini yaratish pedagogik axborot texnologiyalarni joriy etish bugungi kunning dolzarb muammolaridir.

Bugungi kunda ta'lif tizimini yanada takomillashtirish uchun pedagogik texnologiyalardan keng foydalanish va pedagog kadrlarning imkoniyatlarini oshirishga katta talablar qo'yilmoqda bugungi kunda bilimdonligi mustahkam bo'lgan yosh kadrlarni har tomonlama yetuk intelektual salohiyti, manaviyati kuchli, zamon bilan hamnafas bo'ladigan yoshlarni tarbiyalashda oliy ta'lif tizimidagi ta'lif jarayoni juda muhim bo'lib hisoblanadi.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda oliy ta'lifda dars jarayonlarida endilikda o'quvchilarni passiv eshituvchi emas, balki ularni faol qatnashuvchi roliga o'tkazish lozim. Shundagina o'qituvchi o'z oldiga qo'ygan maqsadga, darsni samaradorligini oshirishga bu bilan esa ta'lif samaradorligiga erishadi. Bu jarayonlarni albatta zamonaviy pedagogik texnologiyalarsiz tasavvur etish qiyin. Chunki darslarda mavzu mazmuniga mos pedagogik texnologiyalardan o'z o'rnidagi foydalanish talabalarga mavzuni to'liq, mukammal shaklda yetkazib berish hozirgi zamon o'qituvchisidan ulkan inteliktual salohiyat, yuksak pedagogik malaka talab etadi. Yuqoridagilardan kelib chiqib chizma geometriya darslarini tashkil etishda bu ko'rsatmalar muhim hisoblanadi.

2 Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг «Камолот» ёшлар ижтимоий ҳаракатининг IV қурултойидаги нутқи.

I-BOB. MUHANDISLIK GRAFIKASI FANLARINING RIVOJLANISH BOSQICHLAR.

1.1. Chizmachilik fani, uning maqsad va vazifalari.

Chizmaning inson amaliy faoliyatidagi ahamiyati

Grafika- Insoniyat grafikani momila vositasi sifatida qadim-qadimdan qo'llanilib kelingan. Odamlar yashagan g'orlarning devorlariga fikrlarini shakillar orqali ifoda etganlar. Vaqt o'tishi bilan tasvirlar mazmuni boyib borgan.

Zamonlar o'tishi bilan grafikaning – badiiy, muhandislik, dizayn kabi ko'plab turlari shakllanib muomalaga kirgan. Grafik hujjatlari va asarlarning turlari va sohalari xilma-xil bo'lib ularga chizma, eskiz, sxema, texnik rasm, xomaki rasm, texnik va badiiy illyustratsiya, grafik, diagramma, belgi, logotip, mahsulot belgilari kabilar kiradi³.

Shaharlarda zamonaviy binolarning qurilishi, oddiy ruchkadan tortib zamonaviy samolyotlarni ishlab chiqarishni oldindan texnik hujjatlarni tayyorlamasdan amalga oshirish mumkin emas. Ko'pincha oldindan tayyorlanadigan texnik hujjatlarning salmog'i ular asosida tayyorlanadigan mahsulot salmog'iga teng, ba'zi hollarda esa undan ham ortiq bo'ladi. Hozirgi kunda xalq xo'jaligining turli tarmoqlarida minglab chizmalardan foydalaniladi⁴.

Demak, zamonaviy ishlab chiqarish va xalq xo'jaligi faoliyatining hamma sohalarini chizmalarsiz tasavvur qilish qiyin ekan. Chizmalarni to'g'ri bajarish, o'qish va ular asosida ishlarni amalga oshirishni *chizmachilik* fani o'rgatadi. Chizmachilik so'zini umumlashgan holda quyidagi ma'nolarini ta'kidlab o'tishimiz mumkin:

1. ma'lum qoidalarga amal qilgan holda chizma bajarish jarayoni. Masalan, chizma asbob-anjomlaridan foydalanib, geometrik figuralarning chizmalarini tekislik (qog'oz, kalka va h.)da tasvirlash jarayoni;

2. tasvir bajarish qoida va usullarini o'z ichiga olgan amaliy *texnik xususiyatga* ega bo'lgan fan. “Chizmachilik” fanining

³ Geometrik va proyeksiyon chizmachilik. “URGANCH” -2012.

⁴ Geometrik va proyeksiyon chizmachilik. “URGANCH” -2012.

mazmuni ko'pincha texnika va fanning qaysi sohalariga xizmat ko'rsatishiga bog'liq bo'ladi. Misol uchun, proyeksiyon chizmachilik fazoviy jism va buyumlarni tekislikda tasvirlash qoidalarini o'rganadi. Topografiyada – yer sirtining tasvirlari, qurilish chizmachiligidagi esa qurilish chizmalarini bajarishning qoidalari va usullari o'rganiladi.⁵

Hozirgi ishlab chiqarishda chizmalar bilan ishlashning asosiy uchta yo'naliшини ta'kidlab o'tish mumkin.

1. Tayyor chizmalar asosida detal, buyum va boshqalarni yasash. Bunday sharoitda chizmalarni aniq va to'g'ri o'qish lozim bo'ladi.

2. Tayyorlangan detal, buyum va boshqalarni asliga qarab eskizlarini chizish. Bunda ilgari tayyorlangan chizmalar asosida yasalgan detal, buyum va boshqalarni tuzatish yoki birovning texnik fikriga o'zgartirishlar kiritishga to'g'ri keladi.

3. Hali yaratilmagan detal, buyum va boshqalar chizmasini chizish. Bunda inson o'zining fazoviy tasavvur qilish qobiliyatini ishga solish bilan mutloq yangi ko'rinishdagi mashinalarni yaratishga yoki bor narsalarga o'zgartirish kiritishga intiladi. Insonning bu harakati yuqori malakali konstruktor bo'lishni talab etadi.

1.2. Chizmaning O'rta Osiyo va jahonning boshqa hududlarida rivojlanishi

Mamlakatimizning mustaqillik davrida nashr etilgan ko'pgina risolalarida va O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi tomlarida yetarli ma'lumotlar berilgan va bundan keyin yana ilmiy izlanishlar olib boriladi. Turli fanlarni rivojlantirishga o'z hissalarini qo'shgan Markaziy Osiyoning jahonga mashhur qo'yidagi olimlarning ijodi va faoliyatini keltiramiz. Abu Rayxon Beruniy kubning ichiga joylashtirilgan narsa yoki hayvonni olddan, ustdan, chapdan, o'ngdan, orqasidan va tagidan ko'rinishlari haqida fikr yuritgan [7].

Ahmad Farg'oniy. Ahmad Farg'oniy Bag'dodda Xorun ar-Rashidning o'g'li al-Ma'mun hukmronligi (813-833) davrida

⁵ Geometrik va proyeksiyon chizmachilik. "URGANCH" -2012.

O'rta Osiyo⁶ Sa'id Astur⁷ olik
Abbos ibn⁸ haqiqi⁹
Farg'oniy tasid¹⁰
proeksiya urin¹¹
biror S nu bayo¹²
nuqtasida erad¹³
xossalari ayylan¹⁴

1. Tekislikka azida¹⁵
sfera ma nadi¹⁶
proeksiya eogr¹⁷
ercha¹⁸

2. St¹⁹ i bo²⁰
orasidagi ja²¹
proeksiya a S²²
bo'ladi. u nu²³

3. St²⁴ m²⁵ tekislik ha²⁶
[7]. xossal²⁷

Bu p²⁸ isb²⁹
(masalan, n³⁰inch³¹
xossalarni r³²inchi³³
asarida b³⁴ ekm³⁵ma³⁶
quyidagi eksiy³⁷ va³⁸
chiziqqa p³⁹ [7].
chiziqnine⁴⁰ maq⁴¹
SNM = SM uhar⁴²

Muh⁴³ tema⁴⁴
to'liq ismi⁴⁵ Doni⁴⁶
mashhur⁴⁷ yax⁴⁸
al-xikmat⁴⁹ z da⁵⁰
uyi⁵¹ qoshi⁵² edi⁵³
bor edi. Uni⁵⁴ iy⁵⁵
edi.

Xora⁵⁶ llana⁵⁷
bilan shu⁵⁸ poll⁵⁹

Arximed v⁶⁰

nlar Muhammad ibn Muso Xorazmiy, shariy va boshqalar bilan birga ishlagan. "yasash haqida" degan asarida stereografik quyidagi tushunchalarni bergen. Sferani shu nuqtaga diametrial qarama-qarshi S1 a tekislikka proeksiyasi haqida va uning di:

otgan aylanalar S markaz orqali a ko'rinishida proeksiyalanadi. Aylanalar o'tsa, ular to'g'ri chiziqlar ko'rinishida

proeksiyada sferada yotgan egri chiziqlar ni a tekislikka proeksiyalanganda ularning egri chiziqlar orasidagi burchaklarga teng

S1 o'tgan diametr atrofida burilganda a atrofida xuddi ana shu burchakka buriladi

Farg'oniygacha yashagan ba'zi olimlar asarlarida ham uchraydi. Ammo ular bu bermagan. Farg'oniy yuqorida aytilan saning to'liq isbotini keltiradi. Bunda u soslanadi: faraz qilaylik, aylana to'g'ri ganda aylananing M va N nuqtalari to'g'ri uqtalaridan o'tsin. U holda SMN = SN'M,

I-Xorazmiy (783-850). Xorazmiyning d ibn Muso al-Xorazmiy. U O'rta Osiyolik va astronom. Al-Ma'mun Bag'dodda "Bayt andlar uyi")ni qurdiradi. "Donishmandlar hozlangan rasadxona va boy kutubxona fanlar Akademiyasi deb atash mumkin

odga kelgach, ilmiy tekshirish ishlari Qadimgi yunon matematiklari Yevklid, arning hamda qadimgi hind astronom va

matematiklarining ishlarini qunt bilan o'rganadi. Uning

Bag'doddagi dastlabki ishi hindlarning "Sindxanta" nomli astronomik asarining arabcha tarjimasini tahrir qilish bo'ldi [7].

Tez orada Xorazmiy matematika, astronomiya, geografiya, tarix va tabobat ilmi buyicha butun O'rta Sharqda shuhrat qozondi. U "Bayt al-hikmat" dagi kutubxona, rasadxona va barcha ilmiy tekshirish ishlariga rahbarlik qildi. Agar "Donishmandlar uyi" ni Fanlar Akademiyasi desak, u holda Xorazmiy o'sha Akademianing prezidenti lavozimida edi [7].

Xorazmiyning matematikani rivojlantirishga qo'shgan hissasi beqiyos. Uning "Hind hisobi" nomli risolasi o'nli sistema raqamlari (0, 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9) ga bag'ishlangan. Xorazmiy Hindistonda kashf etilgan bu raqamlarni soddalashtirdi va birinchi bor arab tilida bayon etdi. Bu raqamlar XI asrda Xorazmiyning risolasi tufayli xindlardan arablarga, keyinrok, Yevropaga o'tdi [7].

Xorazmiy o'rta asr Sharqida yaratilgan eng birinchi zижematematik va astronomik jadvallarning muallifi. U geografiyaga doyr "Yersurati" nomli asaryozgan. Bu asar Xorazmiy tomonidan chizilgan bir nechta karta va unga yozilgan sharhlardan iborat. Amerikalik sharqshunos D.Sarton Xorazmiyni "Barcha zamonlarning eng buyuk matematiklaridan biridir" deb ta'riflaydi [7].

Abu Rayxon Beruniy (973-1048). Beruniyning to'liq ismi Abu Rayxon Beruniy Muhammad ibn Ahmad- o'rta asrning buyuk qomuschi olimi hisoblanadi. U Xorazmning Qiyot shahrida hozirgi Beruniy shahrida tug'ilgan. Beruniy juda yoshligidan ilm va fanga qiziqadi. U — astronomiya, matematika, geodeziya, geografiya va mineralogiya fanlarini sevgan. U o'zining "Geodeziya" asarida Qiyot shahrining geografik kengligini aniqlaganini yozadi.

Beruniy yoshlik chog'laridayoq astranomik asboblar kvadratlarini yasagan. U o'zining yasagan asboblari yordamida astronomik o'lchash ishlarini olib borgan. Beruniyning matematikaga oid, trigonometriya, geometriya, sferik

trigonometriyada qilgan anchagina kashfiyotlarini shu asarda chizmalar yordamida bayon etilgan. "Hindiston" asarining XV, XXIII va XXIV boblarida geometriyaga doir masalalar bayon etilgan. Beruniy fan xazinasini shunday bebaho javohirlar bilan to'ldirdiki, bunda bu fanlar bilan bog'liq bo'lgan grafika ham chetda qolmadi. Uning ko'p asarlarida ko'plab grafik tasvirlar o'rinni olgan. "Geodeziya" asarida 69 ta chizmaning illustrasiya tarzida berilishi chizmalar mohiyatini juda qadimdan tan olinganligini bildiradi. Beruniyning matematikaga tegishli "Trigonometrik funksiyalarни soddalashtirish", "Yulduzlarni tekislikda tasvirlash", "Sferik yoyni aniqlash haqida", "Sfera nuqtalarini tekislikda tasvirlash", "Yevklid ishlariga izohlar" kabi asarlari ham grafika bilan bevosita bog'liqdir. Beruniyning bunday qarashlari hozirgi zamon muhandislik grafikasida qo'llanadigan GOST 2.305-68 dagi asosiy 6 ta ko'rinishlarga mos keladi [7].

Beruniy Yevklidning "Negizlar" va Ptolomeyning "Almagest" nomli asarlarini hind tiliga tarjima qilgan. Beruniy o'z ilmiy ishlarida proeksiyalar metodini tadbiq etib, chizmalar chizgan va ulardan foydalangan. U biror jismni tasvirlovchi chizmani chizishda uning ko'rinishlariga e'tibor berilishiga to'xtalib shunday deydi: "To'g'ri burchakli oltiyoqlik ichida uning biror tarafiga qarab bir jonivor turibdi deb faraz qilinsa, u holda yoyslar jonivorning oldi, orqasi, o'ngi, so'li, ust iva osti bo'ladi" [7].

Beruniy markaziy proeksiyalash usulidan foydalangan holda o'zining "Mas'ud qonuni" asarida kartografik proeksiyalar usulida keng to'xtalib o'tgan. Bu asarda u yerni go'yo shar qiyofasidagi bir geometrik jism deb qarab, uning tekislikdagi tasvirini hosil qilish borasida ko'p ishlar qilgan. Beruniy yerni doira orqali tasvirlash uchun 90 ta konsentrik aylana vash u aylanalar markazidan tarqaluuvchi 300 ta nur ishtirotida hosil qilingan proeksiya orqali ifoda etishni taklif qilgan. Bunda konsentrik aylanalar, parallelilar, markazidan tarqaluuvchi nurlar meridianlar vazifasini o'tagan. Hozirgi paytda bu usul Beruniydan deyarli 500 yil keyin yashab o'tgan

Postelning nomi bilan bog'liq bo'lgan holda "Postelning qutbiy azimutal proeksiyasi" deb ataladi. Beruniy "Minerologiya" nomli mashhur asarida minerallarning qiyofasini ta'riflashda konus, ko'pyoq, nuriya, havoyi so'zlardan foydalanadi. Bu yerda "Nuriya" (alangasimon) sirt arabcha "tetraedr", "havoiy" esa "oktaedr" ma'nosida berilgan [7].

Umar Xayyom (1048-1123). Qadimda va O'rta asrlarda yashagan olimlarning ko'pchiligi fanning turli sohalarida muvaffaqiyatli ijod etishgan. Shoir Umar Xayyom ana shular jumlasiga kiradi. Umar Hayyom geometriyaga ham katta hissa qo'shgan

Umar Xayyom (1048—1123). Qadimda va O'rta asrlarda yashagan olimlarning ko'pchiligi fanning turli sohalarida muvaffaqiyatli ijod etishgan. Shoir Umar Xayyom ana shular jumlasiga kiradi. Umar Hayyom geometriyaga ham katta hissa qo'shgan. Uning Yevklidning V postulatini "Isbotlash" sohasidagi ishi juda mashhur. Yevklid o'zining "Negizlar" asarida V postulatni "Ikki tug'ri chiziqni uchinchi to'g'ri chiziq, bilan kesganda, uning ichki bir tomonli burchaklarining yig'indisi qaysi tomonda ikki to'g'ri burchakdan kichik bo'lsa, ular usha tomonda kesishsin" - deydi. Yevklidning bu ta'rifi unchalik ayoniy bo'lmanidan qadim zamonlardan boshlab matematiklarda shubha to'g'dirgan. Ular bu postu-lat emas, teorema bo'lishi kerak, yanglish holda postulatlar qatoriga kiritilgan deb o'ylashgan va uni isbotlashga urinishgan (Lobachevskiy geometriyasi) [7].

Mahmud G'iyosiddin Koshiy (1402-1474) Xalq me'morchiligidagi "Muhandislar sultonasi" nomli unvonga sazovor bo'lgan atoqli matematik, astronom Jamshid ibn Mas'ud ibn Mahmud G'iyosiddin Koshiy XV asrda ham fanning ko'p sohalari bilan, shu jumladan, grafika bilan ham shug'ullangan. Al-Koshiy o'z asarlarida o'zidan avvalgi XI-XIII asrlarda matematik va geometriklarning kashfiyotlaridan foydalandi va o'zi matematika sohasida buyuk kashfiyotlar qildi. U birinchi bo'lib, o'nli kasrlarni kashf qildi. Uning ikkinchi kashfiyoti sonlardan II darajali ildiz chiqarish amali edi. Al-Koshiyning "Aylana

haqida risola" asari aylana uzunligining o'z diametriga nisbati, ya'ni π sonini hisoblashga bag'ishlangan. U π sonining 17 ta xonali qiymatini shu sohadagi Yevropa olimlaridan 200 yil ilgari topgan. Uning asarlari shuni ko'rsatadiki, o'rta asrlarda Markaziy Osiyodagi fanning rivojlanish darajasi o'sha davrdagi G'arbiy Yevropadan bir necha yuz yillar o'tib ketgan.

Al-Koshiy o'zining "Hisob kaliti" va "Aylana haqida risola" asarida geometriya fanining ayrim qoidalari haqida umumiylar ma'lumatlarni beradi. Unda o'zi tomonidan va o'zidan avvalgi XI-XIII asrlarga o'tgan mashhur matematik va geometrlarning kashfiyotlaridan foydala-niladi. Uning "Hisob kaliti" asari kirish qismidan tashqari 5 ta kitobdan tashkil topgan. Bu asarda ko'p burchaklar haqida shunday deydi: "Ko'pburchak" bu shunday sirdan iboratki, to'rttadan ortiq, to'g'ri chiziqlar bilan chizilgan. Masalan, beshburchak, oltiburchak, yettaburchak, sakkizburchak va hokazo. Ular teng tomonli va teng burchakli yoki har xil tomonli yoxud bir xillari teng, ayrimlari esa har xil yo'nalgan. Teng tomonli ko'pburchaklarga tomonlariga urinma bo'lgan doira chizish mumkin.

Al-Koshiyning "Hisob kaliti" asarida bayon qilinishicha, to'g'ri burchakli uchburchak va muntazam ko'pburchaklarni, shu jumladan, qavariq va yulduzcha ko'rinishidagi shakllarni yasash aylanani 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, 10 bo'lishidan kelib chiqadi. Aniq yasash mumkin bo'lgan ko'pburchaklar qo'yidagilardir: 3, 4, 5, 6, 8, 10, 12, 15, 16, 17, 20, 24 va hokazo. Aniqlikda yasalishi uchun qoidasi bo'lmanani ko'pburchaklar qo'yidagilar: 7, 9, 11, 13, 14, 19, 21, 22, 23 va hokazo. Al-Koshiy me'morlar va duradgorlarga bu shakllarni qurilish ishlarida ko'plab tadbiq qilishni dalil qilib ko'rsatadi. Uning geometrik shakllarning yuzasini hisoblash usuli bino devorlarini suvash ishlarida muhim bo'lib, "Qobusnomasi" XI-asrda aytilgan, istalgan shaklni uchburchaklarga bo'lib, yuzasini aniqlash qoidasiga mos keladi.

Al-Koshiy astronomik kuzatishlarda ham qatnashib, astronomik jadvalni tuzish bilan ham shug'ullangan. Bundan tashqari u zamonasining yetuk me'mori va muhandisi sifatida arxitektura nazariyasi haqida kitob yozdi.

Koshiyning grafikaning rivojlanishidagi mehnatlari beqiyosdir. Chunkime'morchiliksan'atigrafikasizbo'limganday, grafikaning asosi hisoblangan geometriyaning taraqqiyoti o'z o'rnidagi katta ahamiyatga molikdir. Ayrim tarixiy manbalardan ma'lum bo'lishicha, Al-Koshiy Samarkand rasadxonasing qurilishi davrida qatnashgan va rasadxonaning astronomik jihatlarini hal qilishda o'zi shaxsan muttasaddilik qilgan [7].

O'zbekistonda chizma geometriya fanining o'qitilish tarixi. Chizma geometriya fani boshqa fanlar singari insonning mehnat faoliyatini natijasida paydo bo'lgan.

Ma'lumki, 1918 yilda O'rta Osiyo va Qozog'istondagi birinchi tashkil qilingan Oliy o'quv yurti Turkiston Halq Universiteti (Hozirgi O'zbekiston milliy universiteti) hisoblanadi. Keginchalik 1920 yilda bu universitet Turkiston Davlat universiteti deb nomlandi. Bu O'rta Osiyo respublikalarida halq maorifi va Oliy muktab rivojlanishining asosi bo'ldi. Universitetda texnika va qishloq xo'jaligi fakultetlari tashkil etilib mexanik va gidrotexnik inshootlar, qurilish yo'naliishlari bo'yicha mutaxassis injenerlar tayyorlandi. Universitetning texnika va qurilish inshootlari yo'naliishlari talabalariga fundamental tabiiy fanlar va umum injenerlik fanlari bilan bir qatorda chizma geometriya fani ham o'qitala boshlandi. Shu vaqtan bosholab mamlakatimiz oliy o'quv yurtlarida hozirgi vaqtda o'qitiladigan "Chizma geometriya" va "Chizmachilik" fanlari o'qitala boshlangan deb hisoblash mumkin. 1923 yilda universitetning texnika fakulteti injener-meliorativ fakultetiga aylantirildi. Dastlab chizma geometriya va chizmachilik fanlari birgalikda o'qilib, o'quv jarayoni chizmalarni chizish va ularni o'qiy olishga qaratilgan [7].

1929 yilda Turkiston Davlat Universiteti tarkibidagi injener-meliorativ fakulteti asosida O'rta Osiyo paxtachilik irrigatsiya, politexnika instituti tashkil qilindi. Shuningdek 1930-34 yillarda Universitet tarkibidan bir necha Oliy texnika o'quv yurtlari ajralib chiqib, bu institutlarda "Chizma geometriya va chizmachilik" kafedralari tashkil qilindi va umuminjenerlik fanlari qatorida grafika fanlari ham to'liq

o'qitala boshlandi. Dastlabki yillarda fanni o'qitish uchun uning o'qitish metodikasiga, talabalar bajaradigan chizmalar to'plamlarini tuzish va yosh o'qituvchilarning pedagogik mahoratini oshirish kabi ishlarga katta e'tibor berilgan. 1926-1946 yillarda Toshkent Oliy texnika o'quv yurtlarida Sovet davrining mashhur geometr olimlaridan S.M.Kolotov, M.Ya. Gromov va V.O.Gordon, N.L.Lixachyov, Ye.I.Godiklar chizma geometriya va chizmachilikdan dars berish bilan bir qatorda o'zlarini ba'zi-bir fundamental ilmiy ishlarini Toshkentda olib borganlar [7].

1926-1944 yillarda professor S.M.Kolotov (1985-1965) O'zbekistonda yashab turli inshootlarni loyihalashda, qurilish va sanoatni qayta tiklash ishlarida faol qatnashib, O'rta Osiyo Industrial Instituti (hozirgi Toshkent davlat texnika universiteti)da chizma geometriya va arxitektura loyihalash fanlardan mashg'ulotlar olib borgan. 1933 yilda u «Chizma geometriya kursi» darsligini yozib «Yordamchi proeksiyalash» usulini nazariy tomongan asoslab, usulni pozitsion va metrik masalalarni yechishdagi qulay tadbig'ini ko'rsatgan. Shu yillarda soyalar yasash, perspektiv tasvirlar yasashga ham bir necha ilmiy ishlar yaratgan [7].

1935-1941 va 1945-1946 yillarda professor M.Ya.Gromov (1884-1963) Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti «Chizma geometriya va chizmachilik» kafedrasida mudirlik qilgan. Shu davrlarda u kafedrada ilmiy va metodik ishlarni rivojlantirib, yoyiluvchi chiziqli sirtlar nazariyasi va konform almashtirish usullarini yaratdi va chizma geometriyani egri chiziqlar, sirtlarning hosil bo'lishi va ularning yoyilmalarini yasashga doir yangi nazariy asoslar kiritdi. M.Ya. Gromov 1937 yilda rus tilida «Proektion chizmachilik» bo'yicha masalalar to'plami kabi o'quv qo'llanmalar yaratdi. M.Ya.Gromov 1941-1945 yillarda Toshkent Irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash injenerlar instituti (hozirgi Toshkent Irrigatsiya va Melioratsiya instituti) «Chizma geometriya va mashinasozlik chizmachiligi» kafedrasida ham mudir bo'lib ishlab, u shu yillarda O'rta Osiyo politexnika institutiga (hozirgi

Toshkent Davlat texnika universiteti) chizma geometriyadan leksiylar o'qigan. Bu davrda u o'zining «Chizma geometriya» darsligining 1 va 2 qismlariga tegishli nazariy va amaliy ma'lumotlarni yaratgan [7].

1941-1945 yillarda professor V.O.Gordon (1892-1971) Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti «Chizma geometriya va chizmachilik» kafedrasiga rahbarlik qildi. U shu davrda o'zining ilmiy va pedagogik faoliyatida chizma geometriya fanini nazariy va umumta'lim maktablarida o'qitiladigan «Chizmachilik» predmetini metodik tomonidan rivojlantirishga katta xissa qo'shgan. Shu yillarda V.O.Gordon 1935 yilda chop etilgan «Chizma geometriya kursi» darsligini qayti ishlab ko'pgina mavzularni nazariy tomonidan boyitdi va chop ettirdi. Hozirgi kunda bu kitob 23 marta qayta nashr qilinib, Rossiya oliy texnika o'quv yurtlari uchun asosiy klassik darsliklardan biri hisoblanadi [7].

Respublikamizda chizma geometriya fanini o'zbek tilida o'qitilishi va milliy tilda adabiyotlar yaratilishiga prof. R. Xorunov va Yu. Qirg'izboev, E. Sobitovlarning xizmatlari katta bo'lgan. Bu olimlar haqidagi ma'lumotlarni kitobning keyngi betlarida keltiramiz.

Shuningdek respublikamiz pedagoglaridan Sh.K.Murodov birinchi bo'lib Kievdagagi prof. S.M.Kolotov ilmiy maktabiga aspranturaga o'qishga kirishi tufayli Ukraina olimlari bilan ilmiy bog'lanishlar paydo bo'ldi. Kiev ilmiy maktabining hozirgi rahbari Ukrainada xizmat ko'rsatgan fan arbobi, texnika fanlari doktori, professor V.Ye.Mixaylenkoning 1968 yilda birinchi marta Buxoro (BDPI) va Samarqand(SamDAQI) oliy o'quv yurtlariga kelib ma'ruzalar o'qishi va undan keyingi yillarda Toshkent, Samarqand, Buxoro, Urganch, Qo'qon, Chimkent va Jambul shaharlariiga bir necha bor kelishi va ilmiy seminarlar o'tkazib izlanuvchi-tadqiqotchi va aspirantlar tanlanishi O'zbekiston va qo'shni respublikalarda «Chizma geometriya» fanining rivojanishiga asosiy sabablardan biri bo'ldi. Natijada respublikamizda mavjud 35 fan nomzodlaridan 28 tasi shu ilmiy maktabda dissertatsiya himoya qilganlar va ulardan 4

tasi professor Sh.K.Murodov, R.Q.Ismatullaev, J.Ya.Yodgorov, D.F.Qo'chqorova va bittasi fan doktori bo'ldilar.

Moskva olimlaridan fan doktorlari, professorlar: I.I.Kotovning Toshkent aviatsiya zavodiga kelishi, N.N.Ryjov va M.A.Tevlinlarning Samarqand arxitektura qurilish institutiga, S.A.Frolova V.A.Yakuninlarning Toshkent politexnika institutiga kelib ilmiy seminarlar va olimpiadalar o'tkazishlari O'zbekiston va Rossiya olimlari orasidagi ilmiy aloqalar o'rnatilishi va bu professorlardan tegishli ilmiy va metodik maslahatlar olinishi chizma geometriyani Respublikada rivojlantirishga o'z ta'sirini ko'rsatgan [7].

1.3. Standart haqida ma'lumotlar. Konstrukturlik hujjatining yagona tizimi (KXYAT) haqida ma'lumot

Ishlab chiqarish hamma sohalarida qo'llaniladigan chizmalarни bajarish, taxt qilish va hayotga tadbiq kiritishda umumiyligida qoidalarga bo'lgan talab; mahsulot shakli va o'lchamlarini **unifikatsiyalash** (bir xillika keltirish)ga hamda jahon bozoriga raqobatbardosh mahsulotlarni yetkazib berish zaruriyatlari KHYT standartlarining yaratilishiga sababchi bo'lgan.

KHYT standartlari – bu sanoatning hamma sohalarini, qurilish, transport va o'quv muassasalarida chizma bajarish, taxt qilish va muomalaga kiritishning yagona qoidalari belgilovchi normativ hujjat bo'lib, u vakolatli organ (Standartlar bo'yicha Davlat qo'mitasi) tomonidan tasdiqlangan bo'ladi.

Ta'lim muassasalarida chizma bajarishda xalq xo'jaligining boshqa sohalarida bajariladigan chizmalar kabi ularni savodli taxt qilish va bir ma'noli o'qish imkonini beradigan standartlar qo'llaniladi.

Ishlab chiqarishning doimiy ravishda rivojlanib va takomillashib borishi mavjud standartlarni qayta ko'rish va ularga o'zgarishlar kiritib borishni talab qiladi. Har bir kishi, korxona yoki tashkilot u yoki bu standartni qabul qilingan yilini aniqlashlariga imkoniyat yaratish maqsadida standartning nomeri va tasdiqlangan yili ko'rsatilgan belgilashning yagona

shakli qabul qilingan.

Hozirgi kunda bu KHYT standartlari har biri 0 dan 9 gacha bo'lgan 10 ta shifrli quyidagi klassifikatsion guruhlarga bo'linadi:

Nolinchı guruh - DST 2.001-93 va keyingilari umumiy qoidalarni belgilaydi. DST 2.001-93 davlatlararo standart hisoblanadi. U 12ta MDH davlatlarining standartlashtirish, metrologiya va sertifikatsiya bo'yicha Davlatlararo Kengashi tomonidan qabul qilingan va O'zbekiston Respublikasida ham bevosita Davlat standarti sifatida amalga kiritilgan. U KHYT standartlarining asosiy vazifasi konstruktorlik hujjatlari (KH) bajarish, taxt qilish va muomalaga kiritishning yagona, qulay qoidalarni belgilaydi. Ushbu DST tomonidan konstruktorlik hujjatlari mahsulotga aloqador barcha normativ-huquqiy talablarga javob berishi zarur.

1. Birinchi guruh-DST 2.101.68. ... – umumiy qoidalalar;
2. Ikkinci guruh-DST 2.201-80... – KH va mahsulotlarning belgilanishi;
3. uchinchi guruh-DST 2.301-68. .. – chizmalarini bajarishning umumiy qoidalari;
4. to'rtinchi guruh-DST 2.401... – mahsulotlar chizmalarini bajarish qoidalari;
5. besinchi guruh-DST 2.501-88. .. – KHni hisobga olish va foydalanish;
6. oltinchi guruh-DST 2.601-68. .. – ekspluatatsion va ta'mirlash hujjatlari;
7. yettinchi guruh-DST 2.701-84. ... – sxemalarni bajarish qoidalari;
8. sakizinchi guruh-DST 2.801-74.... – loyihalashning maket metodi; DST 2.850-75.... – tog' grafikasi xujjatlari;
9. to'qqizinchi guruh – boshqa standartlar.

Chizmachilik kursida asosan uchinchi guruh standartlari, birinchi, to'rtinchi va yettinchi guruhlardan ayrim standartlar tanlab o'rganiladi.

Kishilarning mehnat faoliyatini ob'yektlarini standartlashtirishga bo'lgan intilishlari qadim zamonlardan

boshlangan.Qadimgi Misrda o'qoyvao'qlar standartlashtirilgan, standart o'lchamdag'i toshlardan piramidalar bunyod qilingan.

O'tkazilgan arxeologik tadqiqotlar, qadimiy qo'lyozmalar O'zbekiston hududida bundan 2000-2500 yil ilgari ham standartlashtirish yuksak darajada bo'lganligidan dalolat beradi.

Eramizgacha bo'lgan birinchi ming yillik boshida, ayniqsa er.avv. VII-VI asrlarda hozirgi O'zbekiston hududida shahar qurilishi va me'morchilik yuksak darajada rivojlangan.

Mamlakatimiz hududidagi ilk davlatchilik shakli-qadimiy Xorazm davlatining shakllanishini ham tadqiqotchilar shu davrga bog'laydilar. Abu Rayhon Beruniyning ma'lumot berishicha Aleksandr Makedonskiyning O'rta Osiyoga yurishi davrida (er.avv. IV asr) Qadimiy Xorazmda markazlashgan davlat shakllanib, u o'zining davlat tili va yil hisobiga ega bo'lgan. Aleksandr Makedonskiy qo'shinlari O'rta Osiyoda paydo bo'lgan davrda, Qadimiy Xorazmda mahalliy kalendar (taqvim)ga asosan X asr hukm surayotgan edi.

Eski Termiz, Qadimiy So'g'd va Xorazmning "o'lik " vohalaridagi qal'alarda o'tkazilgan arxeologik qazilmalar ko'rsatishicha, eramizdan avvalgi IV asrdan boshlab shaharlar aniq to'g'ri to'rtburchak ko'rinishida bo'lib, o'zining mudofaa devorlariga, uy-joylarning va ko'chalarning tartibli rejalashtirilishiga ega bo'lgan.Ushbu davrdagi qurilish texnikasi ham yetarlicha rivojlangan. Devorlar 40x40x10 sm o'lchamdag'i yirik loy g'ishtlardan ko'tarilgan.

O'zbekiston hududida standartlashtirishning rivojlanishi dastlab qurilish, irrigatsiya inshootlarini barpo qilishda yaqqol ko'zga tashlansa, keyinchalik; u xalq hunarmandchiligi sohalari va qurol-aslahha tayyorlashga ham kirib borgan, masalan milliy do'ppilar, cholg'u asboblari, gilamchilik, o'q-yoy va shunga o'xshash ko'plab mahsulotlar hunarmandlar tomonidan qat'iy belgilab tayyorlangan qoliqlar va o'lchamlar asosida bajarilgan. Lekin bu standartlashtirish nisbatan shartli bo'lib, kishilarning turmush tarzi hamda ijtimoiyi qtisodiy aloqalariga bog'liq holda har bir hududda o'ziga xos xususiyatta ega bo'lgan va o'zgarib

turgan.

1798 yilda fabrikant Uitni AQSh kongressi yig'ilishiga 10 ta miltiqni olib kelib, ularni qismlarga ajratib aralashtirib tashlaydi va ularni qaytadan yig'ib sifatini tekshirib ko'rishni taklif qiladi. Ushbu sana standartlashtirishning eng zarur qismi bo'lgan o'zaro almashuvchanlikka asos solingan kun hisoblanadi⁶.

Ta'lim muassassasalarida chizma bajarishda qo'llaniladigan quyidagi standartlarni o'rganishga katta ahamiyat beriladi:

- DST 2.104-68 Konstruktorlik hujjatlarining yagona tizimi.

Asosiy yozuvar;

- DST 2.301-68 KHYT. Formatlar;
- DST 2.302-68 KHYT. Masshtablar;
- DST 2.303-68 KHYT. Chiziqlar;
- DST 2.304-81 KHYT. Chizma shriftlari;
- DST 2.306-68 KHYT. Grafik materiallarning belgilanishi va ularning chizmada tasvirlash qoidalari.

O'z DSt 2.0.01:2003

| O'z DSt | 2. | 0 | 01 | :2003 |
|---|--------------------------------|---|---------------------------------------|--------------------------------|
| O'zbekiston Davlat standartining belgisi (indeksi). | O'z KHYT standartining klassi. | Standart guruhining klassifikatsiyasi shifri. | Guruhdagi standartning tartib raqami. | Standart royxatga olingan yil. |

6 Geometrik va proyekcion chizmachilik. "URGANCH" -2012.

1.4. Chizmachilik asboblari va jixozlari.

Chizma qog'ozlari. Qog'oz grafik va matnli konstrukturlik hujjatlari bajariladigan asosiy material hisoblanadi. Ishlatilish sohasi va saqlanish muddatlariga ko'ra chizmalar chizma qog'ozlari, kalka, millimetrali qog'oz yoki katakli yozuv qog'ozlariiga bajarilishi mumkin. Grafik ishni bajarishga kirishishdan oldin toza oq qog'ozda ezilgan, buklangan va g'ijim bo'lgan joylarining yo'qligini tekshirish kerak; o'chirg'ich ishlatganda tililadigan qog'ozlarni chizma bajarishda foydalanish tavsiya qilinmaydi.


Chizmalarni qalamda, tushda, akvarelda va guashda bajarish uchun "**O**" (oddiy) va "**B**" (yuqori sifatli) markali qalin, silliq oq qog'ozlar ishlatiladi. "**O**" markali qog'ozlar o'quv chizmalari chizish uchun, "**B**" markali qog'ozlar esa ko'p vaqt saqlanadigan chizmalar chizish uchun ishlatiladi. Chizmalar qog'ozning silliq tomoniga chiziladi. Qalamda yoki tushda sxema, diagramma, grafik va eskizlar bajarish uchun oddiy, yupqa yozuv qog'ozdan yoki mayda katakchalarga bo'lingan millimetrali qog'ozdan foydalaniladi. Bunday qog'ozlarga chizilgan chizmalar uzoq vaqt saqlanmaydi. Chizmalardan nusxalar ko'chirish, ya'ni ko'paytirish uchun shaffof, yupqa qog'oz – kalkalardan foydalaniladi. Kalkalar muhim ahamiyatga ega bo'lgan va uzoq vaqt saqlanadigan nusxalarni ko'chirish uchun foydalaniladi.⁷

Qalamlar. Qalamlar chizma bajarishda muhim ahamiyatga ega, chunki grafik tasvir sifati ularning qattiqlik darajasini to'g'ri tanlanganligiga bog'liq. Chizmalar chizish uchun har xil qattiqlikdagi qalamlar ishlatiladi. Chizmaning sifatli chiqishi qalamni ishga to'g'ri tayyorlanganligiga ham bog'liq (1-rasm). Qalamlarning qattiqlik darajasi ularga yoziladigan harf va raqamlar orqali ko'rsatiladi. Qattiq-T, yumshoq-M va o'rtacha qattiqlikdagi qalamlar TM va CT harflari bilan belgilanadi. Bulardan tashqari, T, 2T, 3T, 4T – qattiq va M, 2M, 3M, 4M – yumshoq qalamlar ham ishlatiladi. Bunda harf oldidagi son qattiqlik yoki yumshoqlik darajasini bildiradi. Lotin harfida

7 Geometrik va proyekcion chizmachilik. "URGANCH" -2012.

qattiqlik *H*, yumshoqlik *B* va o'rtacha qattiqlikdagi qalamlar *HB* harflari bilan belgilanadi.



Chizma chiziqlari avval 2*T* yoki 3*T* markali uchi o'tkir qilib ochilgan qattiq qalamda o'tkaziladi. Chizmaning ustidan *T* yoki *TM* markali qalam bilan yurgizib chiqib taxt qilinadi. Texnik rasm va eskizlar *M* yoki *2M* markali yumshoq qalamllarda bajariladi.



1-rasm.


Gotovalnya, chizg'ich, uchburchakliklar, transportir, lekalolar chizmachilik asboblaridir. Chizmachilik kerak-yaroqlariga chizma qog'ozi, qalamlar, tush va o'chirgichlar kiradi. Chizma taxtasi, rolikli reysshina, chizma stollari, chizma mashinalari chizmachilik moslamalari deyiladi. Chizmachilik asboblari, kerak-yaroqlari va moslamalari, ularni to'g'ri ishlatish va saqlash haqida to'xtalamiz.

Maxsus g'ilofda joylashgan chizmachilik asboblari to'plamiga **gotovalnya** deyiladi. Gotovalnyadagi U14 belgisi: *U* - universal so'zini, 14 raqami esa gotovalnya ichidagi chizma asboblari 14 ta ekanligini bildiradi(2- shakl).



2-rasm.


Chizmachilik sirkuli va u bilan ishslash. Chizmachilik sirkuli (3-rasm) qalam va tushda aylana hamda yoqlar chizish uchun ishlatiladi.



3-rasm


Bu sirkulning bir oyog'i ixtiyoriy burchakda bukilib, unga vint yordamida ignali oyoqcha 1, qalamli oyoqcha 2 yoki tush bilan chizish uchun mo'ljallangan reysfeder 3 mahkamlanadi. Sirkulning ikkinchi oyog'i ignali bo'lib, tayanch uchi deyiladi. Ingichka yoki qalin chiziqlar chizish maqsadida sirkul uchiga o'rnatiladigan qalam chizg'ichda chizish uchun uchlangan qalamga nisbatan yumshoq bo'lishi kerak. Qalam grafiti sirkul uchidan 5...6 mm chiqib turishi zarur. Aylana yoki yoylarni tushda, qalamda chizishdan qat'iy nazar, sirkulning tayanch qismi va qalam yoki reysfederli uchi qog'oz sathiga nisbatan 90° burchak ostida turishi kerak. Sirkulning tayanch qismi bilan uning chizadigan qismining uchi bir hil uzunlikda (tayanch qismining qog'ozga botishini hisobga olmaganda) bo'lishi shart (3-rasm).

Chizg'ichlar. Chizg'ichlar yog'ochdan, plastmassadan, shaffof va boshqa materiallardan tayyorlanib, chizma chizg'ichi, o'lhash chizg'ichi va masshtab chizg'ichlariga bo'linadi (4-rasm).



4-rasm.

Uchburchakliklar. Uchburchakliklaryog'och, plastmassa, shaffof va boshqa materiallardan tayyorlanadi. Plastmassadan ishlangan uchburchakliklar ko'zni toliqtiradi va chizma qog'ozni ustida dog'lar hosil qiladi. Yog'och yoki shaffof materialdan ishlangan uchburchakliklar eng qulay hisoblanadi (5-rasm).



5-rasm.

Lekalo. Sirkul bilan chizish mumkin bo'lмаган, maxsus nuqtalar bilan berilgan egri chiziqlarni tutashtiruvchi asbob **lekalolar** deyiladi. Lekalolar yog'och (fanera) yoki plastmassadan tayyorlanishi mumkin. Ustiga kamida 4-5 nuqtalarni tekis tutashtiradigan qilib lekaloning ma'lum bir qismi qo'yiladi(6-rasm).

6-rasm


1.5. Chizma qog'ozlari va bichimlari. Kattalashtirish va kichiklashtirish mashtablari.

Format deb chizma va boshqa konstruktorlik hujjatlari bajariladigan ma'lum o'lchamdagи chizma qog'oziga aytildi. Chizmalardan foydalanish qulay bo'lishi, ularni tikish yoki biriktirish, saqlash va tashish hamda qog'ozdan tejamli foydalanish maqsadida KHYT standartlari tomonidan formatlarning o'lcham va belgilanishlari belgilangan. Chizma qog'izi listining formati uni kesishni belgilash uchun o'tkazilgan ingichka chiziq hosil qilgan tashqi ramkaning o'lchamlari orqali aniqlanadi (7-8-rasmlar). Asosiy formatlarning belgilanishi va o'lchamlari 1-jadvalda keltirilgan.

Tomonlarining o'lchamlari;

1-jadval

| A4; | A3; | A2; | A1; | A0; |
|----------|----------|----------|----------|-----------|
| 210×297, | 297×420, | 420×594, | 594×841, | 841×1189, |



7-rasm.

A0 boshlang'ich format sifatida qabul qilingan, qolganlari oldingi formatning kichik tomoniga parallel yo'nalishda uni teng ikkiga bo'lish yo'li bilan hosil qilinadi.

Format (lotincha *forma* – ko'rinish, tashqi tomon) – qog'oz list, kitob, kartochka, to'plam polosalarining uzunligi va eni.



8-rasm.

Asosiy formatlardan foydalanish noqulay bo'lgan hollarda asosiy formatning kichik tomonini uning o'lchamlariga karrali marta orttirib hosil qilingan *qo'shimcha formatlar* qo'llaniladi. 7-8-rasmlarda standartlar tavsija qiladigan qo'shimcha formatlar ingichka tutash chiziqlar bilan, asosiy formatlar esa yo'g'on tutash chiziqlar bilan tasvirlangan. Qo'shimcha formatlarni belgilash asosiy formatlarning belgilaridan tuzilib, uning kattalashtirish soni qo'shib yozib ko'rsatiladi, masalan, A4x4 (297x841), A2x3 (594x1241).

A4 asosiy formatida ishlab chiqarishda faqat vertikal vaziyatda joylashgan vaziyatda chizma bajariladi. Maktablarda chizma bajarishda ushbu formatni gorizontal yoki vertikal joylashtirilishiga ruxsat berilgan.


Mashtablar Chizmada detallar va yig'ish birliklari ularning murakkabliklari hamda o'lchamlariga qarab haqiqiy kattaliklarida, kattalashdirilgan yoki kichraytirilgan holda tasvirlanishi mumkin. *Mahsulotning chizmadagi chiziqli o'lchamlarining haqiqiy chiziqli o'lchamlariga nisbati masshtab deviladi.*

Standartda quyidagi masshtablar belgilangan:

| | |
|-------------------------------------|---|
| <i>Kichraytirish masshtablari</i> | 1:2; 1:2,5; 1:4; 1:5; 1:10; 1:15; 1:20; 1:25; 1:40; 1:50; 1:75; 1:100; 1:200; 1:400; 1:500; 1:800; 1:1000 |
| <i>Haqiqiy masshtab</i> | 1:1 |
| <i>Kattalashtirish masshtablari</i> | 2:1; 2,5:1; 4:1; 5:1; 10:1; 15:1; 20:1; 40:1; 50:1; 100:1 |

Yirik ob'yeektlarning bosh planlarini loyihalashda 1:2000; 1:5000; 1: 10000; 1:20000; 1:25000; 1:50000 mastablarni qo'llashga ham ruxsat qilinadi..

Zarur hollarda ($100n$):1 kattalashtirish mashtablaridan foydalanishga ruxsat qilingan, bu yerda n – butun son. Masshtab qanday bo'lishiga qaramasdan, predmetning chizmada tasvirlangan o'lchamlari emas, haqiqiy o'lchamlari ko'rsatiladi (9-rasm).



9-rasm.

1.6. Chiziq turlari. Chizmadagi shartliliklar. O'lcham qo'yish qoidalari. Tekis shaklga o'lcham qo'yish.

Chiziq turlari. Chizmalarni taxt qilishda vazifalari va chizilishlari turlicha bo'lgan har xil chiziqlar qo'llaniladi (10-rasm).

1. Asosiy tutash chiziq. Chiziqlarning ustidan yurgizib, chizmani taxt qilishda qo'llaniladi. Masalan, ko'rinar kontur, chizmaning ichki ramkasi, qirqim tarkibiga kiruvchi chiqarilgan va qo'yilgan kesim konturlari. Qalinligi tasvir o'lchamlari va murakkabligiga, shuningdek chizma formatiga qarab $s=0,5\dots1,4$ mm bo'lishi mumkin. Bitta chizmaning hamma tasvirlaridagi asosiy chiziqning qalinligi bir xil bo'lishi kerak. O'quv maqsadlari uchun $0,8\dots1$ mm oraliqda bo'lishi tavsiya etiladi.

2. Ingichka tutash chiziq. O'lcham va chiqarish chiziqlari, o'tish chiziqlari, qo'yilgan kesimning tasavvurdagi konturlarini yasash chiziqlari, chiqarish chiziqlarining tokchalari, shtrixlash chiziqlari, yasashdagi yordamchi chiziqlar kabilarda qo'llaniladi. Qalinligi s/3 dan s/2 qacha bo'lishi mumkin.

3. Tutash to'lqin chiziq. Uzilgan joylarni tasvirlash, ko'rinish va qirqimni chegaralashlarda qo'llaniladi. Qalinligi s/3 dan s/2 gacha oraliqda bo'lishi mumkin.

4. Shtrix chiziq. Ko'rinxinmaydigan kontur va o'tish chiziqlarini tasvirlashda qo'llaniladi. Qalinligi s/3 dan s/2 gacha bo'lishi mumkin. O'tkazilayotgan chiziqlarning oralig'idan o'tayotgan

bunday chiziqdagi boshlang'ich va oxirgi shtrixlar ular bilan o'zaro kesishishi kerak.


5. Ingichka shtrix-punktir chiziq. O'q va markaz chiziqlarini, shuningdek chetga chiqarilgan va ustga chizilgan kesimlarning simmetriya o'q chiziqlarini tasvirlashda qo'llaniladi va qalinligi s/3 dan s/2 gacha bo'ladi.

6. Yo'g'on shtrix-punktir chiziq. Kesuvchi tekislik oldida joylashgan elementlarni tasvirlash, turlicha termik ishlov beriladigan yoki qoplanadigan sirtlarni chegaralash chiziqlarini tasvirlashda qo'llaniladi. s/3... s/2 oraliqdagi qalinlikda bo'lishi mumkin.

7. Uzuq chiziq. Kesim chiziqlarini tasvirlashda qo'llaniladi. Qalinligi s dan 1,5s gacha bo'lishi mumkin.

8. Ingichka tutash siniq chiziq. Uzun detallarning uzilgan qismlarining chiziqlarini tasvirlashda qo'llaniladi va qalinligi s/3 dan s/2 gacha bo'lishi mumkin.


9. Ikki nuqtali ingichka shtrix-punktir chiziq. Yoyilmadagi bukilish chiziqlari, buyum qismlarining eng chetki yoki oraliqdagi vaziyatlarini va ko'rinish bilan ustma-ust joylashtirilgan yoyilmaning chiziqlarini tasvirlashda qo'llaniladi. Qalinligi s/3 dan s/2 gacha bo'lishi mumkin.



10-rasm.


15 chabi. Chizma bo'yicha chiziq tuzilishiga qo'shilishcha misollar

Chizmadagi shartliliklar. Chizmalarni chizishda mehnat unumini oshirish chizishlarni ratsionalizatsiyalashtirishga soddalashtirish va osonlashtirish yo'li bilan erishiladi. Shu maqsadda standart tomonidan bir qator shartliliklar va soddalashtirishlar joriy qilingan. Ko'rinishlar sonini kamaytirish, tasvir o'chamini kamaytirish va tasvirlar yasashni osonlashtirish maqsadida shartlilik va soddalashtirishlar belgilangan. Φ - diametr va o - kvadratlarni ifodalovchi shartli belgilardan foydalanish jismni bitta ko'rinishda tasvirlashga imkon beradi⁸ (11-rasm, **a,b,c,d**).



11-rasm.

Shuningdek, diametr va kvadrat belgilardan foydalanib, bitta ko'rinishda shunday jismlardan tuzilgan detalni tasvirlash mumkin (11-rasm). Bitta ko'rinishda shar sirtini tasvirlash mumkin, bunda diametr belgisi "Sfera" yozib qo'yiladi (12-rasm.)




11-rasm.

12-rasm.

⁸ Chizmachinglikdan ma'lumotnoma. I. Rahmonov A. Abdurahmanov TOSHKENT-2005.

- detalning qalinligi 5mm. va uzunligi 100mm. bolsa, yassi va uzun buyumlar bitta ko'rinishda tasvirlanadi (13-rasm);




13-rasm


- uzun detallarni kaltaroq qilib, mashtabni o'zgartirmasdan tasvirlash uchun uzishlar qollaniladi (13-rasm). Uzish joyi ingichka tutash tolqinsimon chiziqda tasvirlanadi;

- detalda bir nechta bir xil joylashgan elementlar mavjud bo'lsa, u holda, ulardan 1-2 tasini tasvirlab, qolganlarini soddalashtirib yoki shartli ko'rsatish mumkin (14-rasm);

- detalning bir qismini uning elementlari sonini va ularning joylashishini ko'rsatib tasvirlash mumkin (15-rasm).





14-rasm.




15-rasm.

- silindrik teshiklarning bittasini ko'rsatib, qolganlarining o'rnini belgilash orqali soddalashtirib tasvirlash mumkin (16-rasm). Silindrik teshiklar kesuvchi tekislikka to'g'ri kelmag'an

holda ham ulardan bittasi shartli ravishda kesuvchi tekislikka keltirilib, xuddi qirqimga to'g'ri kelgandek qilb ko'rsatilishi mumkin (17-rasm);



16-rasm.



17-rasm.

O'lcham qo'yish qoidalari. Chizmalarda o'lchamlarni qo'yishda quyidagilarni hisobga olish tavsiya etiladi:

- detaining har bir o'lchami geometrik va texnologik jihatdan juda to'g'ri, to'liq ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'langan bo'lishi, ya'ni detalni tayyorlashdagi belgilash, ishlov berish, nazorat qilsh kabi usullar hisobga olinishi kerak;

- chizmaga qo'yilayotgan o'lcham shunday bo'lishi lozimki, detalni tayyorlaydigan mutaxassis uni qiyalmay o'qiy olishi kerak;


- o'lchamlar qo'yilayotganda yondosh detallarni ham hisobga olish kerak;

- o'lchamlarni texnologik va konstrukturlik talablarini qondiradigan bazadan boshlab qo'yish lozim;

- o'lchamlar qo'yish va ularni o'zaro boglashda xatoga yo'il qo'ymaslik uchun standart belgilangan qoidalarni mukammal o'rganib, ularga amal qilish lozim;



- o'lchamlar chizmalarda o'lcham chiziqlari va o'lcham sonlari bilan ko'rsatiladi. O'lcham chiziqlaridagi ko'rsatkichlar bitta chizmadagi barcha o'lcham chiziqlari uchun bir xil bo'lishi lozim.

Ko'rsatkichning shakli va elementlarining taxminiy o'lchamlari 18-rasmda ko'rsatilgan;




18-rasm



Tekis shaklga o'lcham qo'yish. Talabalar o'lcham qo'yishda foydalaniladiga variantda o'lchamlar kattaklar 10 mm da olingan. Har bir variantda berilgan kattaklar orqali detalga mos ravishda o'lchamlar qo'yiladi.






32




33









21. VARIANT




22. VARIANT




23. VARIANT



24. VARIANT



25. VARIANT




26. VARIANT

II-BOB. GEOMETRIK CHIZMACHILIK.


1.7. Oddiy geometrik yasashlar (kesmani, aylanalarini, burchakni teng bo'laklarga bo'lish). Sirkul egri chiziqlari, lekalo egri chiziqlari. Qiyalik va konuslik.

Oddiy geometrik yasashlar (kesmani, aylanalarini, burchakni teng bo'laklarga bo'lish). *Kesmani teng ikkiga bo'lish* (19-rasm). M to'g'ri chiziqning AB kesmasini teng ikkiga bo'lish uchun markazlari A va B nuqtalardan kesma yarmidan katta bo'lgan ixtiyoriy R radiusli yoqlar o'zaro C va D nuqtalarda kesishguncha davom qildiriladi. Topilgan C va D nuqtalar o'zaro tutashtirilib, AB kesmani teng ikkiga bo'lувчи E nuqtaning o'rni aniqlanadi.

Kesmani ixtiyoriy sonli teng qismlarga bo'lish (20-rasm). M to'g'ri chiziqning AB kesmasi uning A uchi orqali o'tkir burchak hosil qilib o'tgan t yordamchi nурдан foydalanib 7 ta teng qismga bo'lingan. Buning uchun t нурнинг A nuqtasidan boshlab ixtiyoriy uzunlikdagi kesmalar 7 marta o'chab qo'yiladi (shaklda ular 1, 2,...7 nuqtalari bilan ko'rsatilgan). Oxirgi 7 nuqta B nuqta bilan tutashtiriladi. Shundan keyin t нурдаги qolgan nuqtalardan ham $7B$ kesmaga parallel chiziqlar o'tkaziladi va berilgan AB kesma 7 ta teng qismga bo'linadi. Shu tartibda kesmani ixtiyoriy teng sonli qismga bo'lish mumkin [8].



19-rasm.




20-rasm

Aylanalarni teng bo'laklarga bo'lish.


Aylanani teng ikkiga bo'lish. Berilgan O markazidan aylana chizib, shu O markazidan "diametr" o'tkazilsa, u aylananı

teng ikkiga bo'ladi (21-rasm).



21-rasm


Aylanani teng uchga bo'lish. Agar markazi O nuqtada bo'lgan aylana (22-rasm) 3 ta teng qismga bo'lish zarur bo'lsa, bunda ushbu aylana radiusiga teng radiusli yogni diametr uchlarining faqat bittasidan o'tkazilishi (masalan, D nuqtadan) yetarli bo'ladi.



22-rasm.

Bu yoyning berilgan aylana bilan kesishish nuqtalari B va C lar, hamda A nuqta aylana ni 3 ta teng qismga bo'ladi. A , B va C nuqtalarni o'zaro tutashtirib, teng tomonli ABC uchburchak hosil qilinadi.

Aylanani teng to'rtga bo'lish. Aylananing o'zaro perpendikulyar diametrlari AC va BD ning uchlari markazi O nuqtada bo'lgan shu aylanani 4 ta teng qismga bo'ladi (23-rasm). Ushbu diametrlarning uchlarni o'zaro tutashtirib $ABCD$ kvadratni hosil qilish mumkin.




23-rasm.

Aylanani teng beshga bo'lish. Markazi O nuqtada joylashgan aylanani 5 qismgabo'lish (24-rasm) quyidagi tartibda bajariladi. Uning radiuslaridan bittasi, masalan, OM oldin ko'rib chiqilgan usul bilan teng ikkiga bo'linadi. OM kesmaning o'rtasi N dan AN kesmaga teng R_1 radius bilan aylana yoyini o'tkazib uning shu diametr bilan kesishish nuqtasi R topiladi.


AP kesma aylana ichigachizilgan teng tomonlibeshburchak tomoni uzunligiga teng. Shuning uchun $Omga$ perpendikulyar bo'lgan diametrning A uchidan AP kesmaga teng bo'lgan R_2 radiusli aylana yoyi o'tkaziladi. Ushbu yoyning berilgan aylana bilan kesishish nuqtalari B va E lar beshburchakning ikkita uchini belgilash imkonini beradi.

Yana 2 ta uchi (C va D) B va E nuqtalarni markaz qilib o'tkazilgan R_2 radiusli yoyning berilgan aylana bilan kesishish nuqtalarida topiladi. $ABCDE$ teng tomonli beshburchakning uchlari berilgan aylanani teng 5 qismga bo'ladi (24-rasm).




24-rasm.

Aylanani teng oltiga bo'lish. Aylanani 6 qismga bo'lish uchun aylana ichiga chizilgan to'g'ri oltiburchak tomonlarining tengligi xossasidan foydalaniladi. Agar markazi O nuqtada va radiusi R ga teng bo'lgan aylana berilgan bo'lsa (25-rasm), uning diametrlaridan birining uchlari (A va D)ni markaz deb qabul qilib, R radiusli aylana yoylari o'tkaziladi. Ushbu yoylarning berilgan aylana bilan kesishish nuqtalari aylanani 6 ta teng qismga bo'ladi. Topilgan nuqtalarni ketma-ket tutashtirib $ABCDEF$ to'g'ri oltiburchak hosil qilinadi.





25-rasm.

Aylanani teng yetti bo'lish. Aylanani yetti bolakka bo'lish uchun OA radiusi teng ikkiga bo'lib olinadi. Yetti qismga bolishda 1N nuqta topiladi va 1N nuqtalar aylananing yeti qismining bir bo'lagi (26-rasm a,b).




26-rasm.

Aylanani teng sakkizga bo'lish. Agar o'zaro perpendikulyar diametrlar AE va CG (27-rasm) orasidagi burchak COA teng ikkiga bo'llinib, o'zaro perpendikulyar diametrlar DH va BF lar o'tkazilsa, ularning uchlari markazi O nuqtada bo'lgan aylanani 8 ta teng qismga bo'ladi. Ushbu diametrlarning uchlari o'zaro tutashtirib $ABCDEFGH$ kvadratni hosil qilish mumkin.





27-rasm.


Aylanani teng to'qizga bo'lish. Aylanani teng to'qiz bo'lakga bo'lish uchun N nuqtadan yoy chizib olamiz va aylana radusi bo'yicha OM yoy chizamiz. M nuqtadan chiqan to'g'ri chiziq kesmasi aylanani teng 9 ga bo'ladi (28-rasm).




28-rasm.




48




49





50



51





Sirkul egri chiziqlari Ovallar. Texnikada flanets, kulachok kabi detallar, qurilishda ark kabilarning tuzilishlari qabariqsimon egri chiziqlardan iborat bo'ladi. Bu egri chiziqlar turli diametrda yasaladigan aylana yoylaridan tashkil topadi, ular ovallar deb ataladi va quyidagicha ta'riflanadi.


Oval har xil radiusli aylana yoylardan tuzilgan yopiq va ravon egri chiziq bo'lib, uning shakli ellipsga o'xshaydi. Oval, odatda, ikki simmetriya o'qiga ega, lekin bitta simmetriya o'qi bor ovallar ham uchrab turadi. Bunday ovallar, ko'pincha, ovoid deyiladi.

Endi oval yasashga oid ayrim masalalarni ko'rib chiqamiz.

1-misol. Oval katta o'qining uzunligi AB berilgan (29-rasm). Shu o'q bo'yicha oval yasalsin.

Yechish; AB o'qi teng uch bo'lak (AO_1, O_1O_2, O_2B)ga bo'lnadi. O_1 va O_2 markazdan O_1O_2 ga teng radius R bilan M va N nuqtalarda kesishuvchi ikki aylana chiziladi. N va M nuqtalarni O_1O_2 nuqtalar bilan birlashtirib, NO_1, NO_2, MO_1 va MO_2 to'g'ri chiziqlarga ega bo'linadi. Bularni davom ettirib, aylanalar bilan kesishgan 1, 2, 3 va 4 nuqtalar topiladi. Bu nuqtalar oval yoylarining tutashish nuqtalari bo'ladi.

N va M nuqtalarni markaz qilib, $N_1=N_2=M_3=M_4=R_1$ radius bilan yuqori yoy 12 va pastki yoy 34 lar chiziladi. Natijada hosil bo'lgan $A_1C_2B_4D_3A$ yopiq ravon egri chiziq izlaniyotgan ovalni ifoda qiladi [9].




(29-rasm).

| Variant | 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 | 7 | 8 |
|----------|-----|-----|-----|-----|-----|-----|-----|-----|
| AB kesma | 30 | 35 | 40 | 45 | 50 | 55 | 60 | 65 |
| Variant | 9 | 10 | 11 | 12 | 13 | 14 | 15 | 16 |
| AB kesma | 70 | 75 | 80 | 85 | 90 | 95 | 100 | 105 |
| Variant | 17 | 18 | 19 | 20 | 21 | 22 | 23 | 24 |
| AB kesma | 110 | 115 | 120 | 130 | 140 | 150 | 160 | 170 |

2-misol. Ovalning katta va kichik o'qlarining uzunligi AB va CD berilgan (30-rasm). Shu o'qlar bo'yicha oval yasalsin.

Yechish. O'zaroperpendikular bo'lgan to'g'ri chiziqlar o'tkaziladi va ularning kesishgan O nuqtasi aniqlanadi. Bu O nuqta ovalning markazi bo'ladi. Keyin O nuqtadan bir-biriga perpendikular bo'lgan chiziqlarga oval o'qlari kattaligining yarmi ikki tomonlama o'lchab qo'yiladi yoki bu radiuslar bilan avlanalar chiziladi (30-rasm).



(30-rasm).


| Variant | 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 | 7 | 8 |
|---------------|-----|-----|-----|-----|-----|-----|-----|-----|
| AB katta o'q | 100 | 110 | 120 | 130 | 140 | 150 | 160 | 170 |
| CD kichik o'q | 80 | 90 | 100 | 110 | 120 | 130 | 140 | 150 |
| Variant | 9 | 10 | 11 | 12 | 13 | 14 | 15 | 16 |
| AB katta o'q | 40 | 50 | 60 | 70 | 80 | 90 | 100 | 110 |
| CD kichik o'q | 20 | 30 | 40 | 50 | 60 | 70 | 80 | 90 |
| Variant | 17 | 18 | 19 | 20 | 21 | 22 | 23 | 24 |
| AB katta o'q | 35 | 45 | 55 | 65 | 75 | 85 | 95 | 105 |
| CD kichik o'q | 30 | 40 | 50 | 60 | 70 | 80 | 90 | 10 |

So'ngra oval o'qlarining uchlari, masalan, katta o'qining A uchi kichik o'qining C uchi bilan to'g'ri chiziq orqali birlashtiriladi. Hosil bo'lgan AC kesmadan AB va CD o'qlar uzunliklari ayirmasining yarmi, ya'ni CN_1 , kesma ayirib olinadi. Keyin AN_1 ni teng ikkiga bo'lувчи о'рта перендикулар EF to'g'ri chiziq o'tkaziladi. Bu EF to'g'ri chiziq AB o'qini O_1 nuqtada CD o'qini esa O_2 nuqtada kesadi. Hosil bo'lgan OO_1 va OO_2 masofalar O markazdan o'qlar bo'yicha о'ngtomonga va yuqoriga о'lchab qo'yiladi. Topilgan O_1, O_2, O_3 va O_4 nuqtalar o'zaro birlashtirilsa, yoylarni chegaralovchi $O_1O_2O_3O_4$ va $O_2O_3O_3O_4$ to'g'ri chiziqlarga ega bo'linadi. Endi O_1, O_2, O_3 va O_4 markazlardan avval 1, 2 va 3, 4 nuqtalar keyin 1, 4 va 2, 3 nuqtalar yoylar orqali tutashtiriladi. Natijada hosil bo'lgan yoylar yig'indisi izlanayotgan ovalni ifodalaydi [9].

3-misol. Oval kichik o'qining uzunligi CE berilgan (31-rasm). Shu o'q bo'yicha oval yasalsin.

Yechish. CE o'qining (kesmaning) о'рта nuqtasi O orqali CE ga perpendikular qilib oval katta o'qining yo'nalishi o'tkaziladi. Keyin O nuqtadan radius bilan aylana chiziladi. Bu aylana ovalning katta o'qi bilan kesishib, O_1 va O_2 nuqtalarini beradi. O_1 va O_2 nuqtalar C va E nuqtalar bilan tutashtiriladi. Keyin C va E nuqtalardan CE kesmaga teng bo'lgan R_2 radius bilan yoylar chizib, ularning O_1C va EO_1 hamda CO_2 va EO_2 to'g'ri chiziqlarning davomi bilan kesishgan 1, 2, 3 va 4 nuqtalari topiladi. So'ngra O_1 va O_2 markazlaridan $O_11=O_12=O_23=O_24=R_1$ radius bilan yoylar chiziladi. Hosil qilingan yoylarning yig'indisi izlanayotgan ovalni ifodalaydi⁹.

⁹ Chizmachilik. I Rahmonov, N. Qirg'izboyeva, A. Ashirboyev, A. Valiyev, B. Nigmatov. "VORIS-NASHIRYOT" TOSHKENT – 2016.




(31-rasm).

| Variant | 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 | 7 | 8 |
|---------------|----|----|----|----|----|----|----|----|
| CE kichik o'q | 30 | 33 | 35 | 38 | 41 | 43 | 45 | 47 |
| Variant | 9 | 10 | 11 | 12 | 13 | 14 | 15 | 16 |
| CE kichik o'q | 52 | 54 | 56 | 57 | 59 | 60 | 63 | 64 |
| Variant | 17 | 18 | 19 | 20 | 21 | 22 | 23 | 24 |
| CE kichik o'q | 67 | 68 | 69 | 73 | 75 | 77 | 78 | 79 |

4-misol. Berilgan AB to'g'ri chiziq kesmasi bo'yicha bir oqli oval, ya'ni oddiy ovoid yasalsin (32-rasm).

Yechish. AB kesmaning o'rta nuqtasi O dan $R=AB/2$ radius bilan aylana chiziladi va bu nuqta orqali AB ga perpendikular bo'lgan to'g'ri chiziq o'tkaziladi. Aylana bilan bu to'g'ri chiziq kesishib, O_1 nuqtani beradi. O_1 nuqta A va B nuqtalar bilan birlashtiriladi. Keyin A va B nuqtalardan $R_1=AB$ radiusda yoylar chizib, ularning AO_1 va BO_1 to'g'ri chiziqlarning davomi

bilan kesishgan 1 va 2 nuqtalari topiladi. So'ngra O_1 nuqtadan $R_2=O_11=O_12$ radius bilan yoy o'tkaziladi. Natijada o'tkazilgan AB yarim aylana va yoylar yg'indisi izlanayotgan oddiy ovoidni ifoda qiladi¹⁰.



(32-rasm).

| Variant | 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 |
|--------------------------------|----|----|----|----|----|----|
| AB kesma bo'yicha Ovoid yasash | 52 | 57 | 59 | 62 | 66 | 68 |
| Variant | 7 | 8 | 9 | 10 | 11 | 12 |
| AB kesma bo'yicha Ovoid yasash | 47 | 49 | 72 | 73 | 74 | 76 |
| Variant | 13 | 14 | 15 | 16 | 17 | 18 |

¹⁰ Chizmachilik. I Rahmonov, N. Qirg'izboyeva, A. Ashirboyev, A. Valiyev, B. Nigmanov. "VORIS-NASHIRYOT" TOSHKENT – 2016.

| | | | | | | |
|--------------------------------------|----|----|----|----|----|----|
| AB kesma bo'yicha Ovoid yasash | 77 | 78 | 79 | 83 | 85 | 87 |
| Variant | 19 | 20 | 21 | 22 | 23 | 24 |
| AB kesma bo'yicha Ovoid yasash | 89 | 91 | 93 | 95 | 97 | 99 |

lekalo egri chiziqlari. Konus kesimlari geometrik, ballistik, optik, akustik, estetik va boshqa ajoyib hususiyatlarga ega bo'lib, ulardan fan va texnikaning turli sohalarida, ko'p hodisalar va jarayonlarni tadqiq qilishda keng foydalaniladi.

Ellips. To'g'ri doiraviy konusni uning o'qiga pernedikular bo'lмаган, лекин бир yo'la hamma yasovchilarini kesadigan har qanday tekislik uni ovalga o'xshagan egri chiziq bo'yicha kesadi. Bu egri chiziq *ellips* deb ataladi.

Ellipsning ajoyib xossalardan biri uning har qanday nuqtasini fokuslari bilan tutashtiruvchi to'g'ri chiziqlar ellipsning shu nuqtasidan o'tkazilgan urinmani bir xil burchak ostida kesadi. Bu ellips fokuslarining biridan chiqqan nur ellipsga urilib qaytgach, ikkinchi fokusga tutashishini bildiradi.


1-misol. Ellipsning katta o'qi AB va kichik o'qi CD berilgan (33-rasm). Shu o'qlari (kesmalar) va fokuslari yordamida ellips yasalsin.

Yechish. Avval ellips fokuslarining o'rnini aniqlaymiz. Buning uchun uzunligi katta o'qning yarmiga teng bo'lgan $R=AB/2$ radius bilan kichik CD o'qning biror, masalan, C uchidan yoy chizamiz. Bu yoy bilan AB, ya'ni katta o'q kesishib, F va F_1 nuqtalarni ellips fokuslarini hosil qiladi.

Endi ellipsning katta o'qi AB va F fokusning chap tomonidan ixtiyoriy 1, 2, ... nuqtalami tanlab olamiz, ammo bu nuqtalar orasidagi masofalar kattalashib borsa, topiladigan nuqtalar orasidagi masofalar tafovuti kamayadi. Bu nuqtalar F_1 fokusning o'ng tomonidan tanlab olinsa ham bo'lar edi, lekin bu ellipsning yasalishiga hech qanday ta'sir ko'rsatmaydi.

Ellipsning yasalishiga tegishli bo'lgan nuqtalarni topish uchun F va F_1 fokuslardan $R=A1$ va $R=B1$ radiuslarda navbatli

bilan yoylar chiziladi. Bu yoylar mos ravishda o'zaro kesishib, yasaladigan ellipsga tegishli bo'lgan to'rtta I nuqtani beradi. Xuddi shuningdek, F va F_1 fokuslardan $R=A2$ va $R=B2$ radiuslarda navbatli bilan yoylar chiziladi. Bu yoylar ham o'zaro kesishib, to'rtta II nuqtani beradi. Topilgan nuqtalarni lekalo yordamida ketma-ket o'zaro tutashtiramiz. Natijada yopiq ravon egri chiziqliga ega bo'lamic, bu izlangan ellipssdir. Agar ellips kichik o'qining uzunligi berilmagan bo'lsa, unda ellips fokuslari orasidagi masofaning qiymati berilishi kerak¹¹.



(33-rasm).


| Variant | 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 | 7 | 8 |
|---|-----|-----|-----|-----|-----|-----|-----|-----|
| AB katta o'q | 102 | 113 | 125 | 134 | 142 | 155 | 165 | 177 |
| CD=F ₁ F ₂ kichik o'q | 84 | 95 | 102 | 111 | 128 | 134 | 143 | 152 |
| Variant | 9 | 10 | 11 | 12 | 13 | 14 | 15 | 16 |

11 Chizmachilik. I. Rahmonov, N. Qirg'izboyeva, A. Ashirboyev, A. Valiyev, B. Nigmanov. "VORIS-NASHIRYOT" TOSHKENT – 2016.

| | | | | | | | | |
|---|-----------|-----------|-----------|-----------|-----------|-----------|-----------|-----------|
| AB katta o'q | 41 | 52 | 64 | 75 | 87 | 92 | 105 | 111 |
| CD=F₁F₂ kichik o'q | 25 | 33 | 41 | 56 | 65 | 72 | 83 | 91 |
| Variant | 17 | 18 | 19 | 20 | 21 | 22 | 23 | 24 |
| AB katta o'q | 35 | 45 | 55 | 65 | 75 | 85 | 95 | 105 |
| CD=F₁F₂ kichik o'q | 32 | 43 | 55 | 62 | 71 | 88 | 97 | 89 |

2-misol. Ellips katta o'qining uzunligi AB kesmaga, kichik o'qining uzunligi CD kesmaga teng (34-rasm). Shu o'qlarning uzunligi bo'yicha ellips yasalsin.

Yechish. O'qlarining o'zaro kesishgan O nuqtasidan (ellipsning markazidan) $AB/2$ va $CD/2$ radiuslar bilan aylanalar chizamiz. So'ngra aylanalardan birini, masalan, katta aylanani bir necha bo'lakga, masalan, o'nikkiga bo'lamiz. Nuqtalarni aylanamarkazi O nuqta orqali birlashtiramiz. Bu diametrlar kichik aylanani ham shu tartibda kesadi. Endi katta aylanadagi 1, 2, 3, ..., 8 nuqtalardan ellipsning kichik CD o'qiga parallel chiziqlar chizamiz, shuningdek, kichik aylanadagi $1_1, 2_1, 3_1, \dots, 8_1$ nuqtalar orqali ellipsning katta o'qi AB ga parallel to'g'ri chiziqlar o'tkazamiz. Bu o'tkazilgan to'g'ri chiziqlar tegishlicha kesishib, ellipsning I, II, III, ..., VIII nuqtalarini beradi. Agar berilgan A, C, B, D nuqtalar hamda topilgan nuqtalar lekalo yordamida ketma-ket ravon birlashtirilsa, izlan ayotgan ellips hosil bo'ladi¹².




(34-rasm).


| Variant | 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 | 7 | 8 |
|----------------------|-----------|-----------|-----------|-----------|-----------|-----------|-----------|-----------|
| AB katta o'q | 153 | 184 | 195 | 211 | 222 | 233 | 244 | 255 |
| CD kichik o'q | 120 | 130 | 140 | 200 | 210 | 215 | 220 | 225 |
| Variant | 9 | 10 | 11 | 12 | 13 | 14 | 15 | 16 |
| AB katta o'q | 266 | 277 | 288 | 299 | 300 | 312 | 322 | 333 |
| CD kichik o'q | 230 | 235 | 240 | 250 | 280 | 290 | 300 | 305 |
| Variant | 17 | 18 | 19 | 20 | 21 | 22 | 23 | 24 |
| AB katta o'q | 344 | 355 | 366 | 377 | 388 | 399 | 405 | 410 |
| CD kichik o'q | 310 | 315 | 325 | 336 | 350 | 355 | 380 | 390 |


12 Chizmachilik. I Rahmonov, N. Qirg'izboyeva, A. Ashirboyev, A. Valiyev, B. Nigmanov. "VORIS-NASHIRYOT" TOSHKENT – 2016.

64




65







3. VARIANT




4. VARIANT




5. VARIANT







6. VARIANT








68




69








22. VARIANT






Parabola. To'g'ri doiraviy konusni kesuvchi tekislik shu konusning yasovchilaridan birortasiga parallel qilib o'tkazilgan bo'lса, ular o'zaro ochiq ravon egri chiziq bo'yicha kesishadi. Bu egri chiziq *parabola* deb ataladi va u ma'lum xususiyatga ega.

Parabolaning asosiy xususiyati shundaki, uning har bir nuqtasidan simmetriya o'qiga perpendikular bo'lgan mn direktрисасигача bo'lgan masofa parabolaning simmetriya o'qida joylashgan F fokusgacha bo'lgan m asofaga o'zaro teng bo'ladi. Direktrisa bilan fokus orasidagi masofa parabolaning parametri deyiladi va u P bilan belgilanadi. Simmetriya o'qida joylashgan S nuqta parabolaning uchi deyiladi, u P parametrni teng ikkiga bo'ladi (35-rasm).

1-misol. Parabolaning o'qi Ex fokus masofasi (parametri) P berilgan. Shu berilganlar bo'yicha parabola yasalsin (35rasm).

Yechish. O'zaro perpendikulyar bo'lgan Ex va mn to'g'ri chiziqlar o'tkaziladi hamda ularning bir-biri bilan kesishgan E nuqtasidan parabola o'qi, ya'ni Ex to'g'ri chiziq bo'yicha berilgan P masofa o'lchab qo'yiladi. P masofani teng ikkiga bo'lувчи S nuqta parabolaning uchi, mn to'g'ri chiziq parabolaning direktrisasi deyiladi. F nuqta uning fokusi bo'ladi. Endi S nuqtadan boshlab Ex o'qda ixtiyoriy 1, 2, 3, ... nuqtalar tanlab olinadi. So'ngra bu nuqtalar orqali mn direktrisaga parallel qilib to'g'ri chiziqlar o'tkaziladi. Bu to'g'ri chiziqlar F fokusdan ma'lum radiusli aylana yoylari bilan kesishib, parabolaga tegishli bo'lgan nuqtalar hosil qilinadi. Masalan, 1 nuqta orqali o'tgan to'g'ri chiziqlari F orqali $E1$ radiusli yoy bilan kesib, I nuqtalarni, shuningdek, 2 nuqtadan o'tgan to'g'ri chiziqlari yana F dan $E2$ radiusli yoy bilan kesib, II nuqtalarni hosil qiladi. Keyinchalik topilgan nuqtalar lekalo yordamida ketma-ke o'zaro silliq birlashtiriladi. Hosil bo'lgan ochiq ravon egri chiziq izlanayotgan parabolani ifodalaydi.




(35-rasm).

2-misol. Parabolaning uchi S , o'qi Sx hamda parabolaga tegishli bo'lgan M nuqta berilgan (36-rasm).

Yechish. S nuqtadan Sx o'qqa peipendikular qilib KE to'g'ri chiziq o'tkaziladi. Shuningdek, M nuqtadan Sx o'qqa paralel hamda perpendikular qilib ME va MN to'g'ri chiziqlar chiziladi. Hosil bo'lgan ME va ES kesmalarining har ikkisini teng bo'laklarga, masalan, teng 5 bo'lakka bo'lib, ME kesmadagi $1, 2, 3, \dots$ nuqtalar parabolaning S uchi bilan birlashtiriladi, so'ngra SE kesmadagi $2, 3, \dots$ nuqtalar orqali Sx o'qqa parallel o'tkazilgan to'g'ri chiziqlar tegishli ravishda kesishib, I, II, III, \dots nuqtalarni beradi. Bu nuqtalarga mos bo'lgan, II, III, \dots nuqtalar ham topiladi. Oxirida bu nuqtalar ketma-ket o'zaro ravon qilib birlashtiriladi. Natijada ravon egri chiziqqa, ya'ni parabolaga ega bo'linadi¹³.

13 Chizmachilik. I. Rahmonov, N. Qirg'izboyeva, A. Ashirboyev, A. Valiyev, B. Nigmanov. "VORIS-NASHIRYOT" TOSHKENT – 2016.



(36-rasm).

| Variant | 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 | 7 | 8 |
|---------|----|----|----|----|----|----|----|----|
| EK | 30 | 32 | 34 | 35 | 36 | 38 | 39 | 40 |
| KN | 35 | 38 | 39 | 40 | 42 | 46 | 48 | 49 |
| Variant | 9 | 10 | 11 | 12 | 13 | 14 | 15 | 16 |
| EK | 41 | 42 | 45 | 46 | 48 | 49 | 51 | 52 |
| KN | 50 | 53 | 54 | 56 | 58 | 59 | 62 | 68 |
| Variant | 17 | 18 | 19 | 20 | 21 | 22 | 23 | 24 |
| EK | 53 | 58 | 59 | 61 | 63 | 65 | 68 | 69 |
| KN | 71 | 73 | 74 | 75 | 76 | 78 | 88 | 91 |


Qiyalik va konuslik.

Qiyalikni belgilash va yasash. To'g'ri burchakli ABC ucburchakning AC gipotenuzasi bilan AB kateti orasida hosil bo'lgan burchak tangensi (tga)ga qiyalik deyiladi.

1-misol. $1:4$ nisbatli qiyalik yasalsin.

Yechish. Yasaladigan to'g'ri burchakli uchburchak katetlarining nisbati $1:4$ bo'lishi uchun ularning uzunligi, ya'ni birinchi katetining kattaligi bir birlik bo'lsa. ikkinchi katetining kattaligi undan 4 baravar katta, ya'ni 4 birlik bo'lishi kerak va hokazo.


Shunga ko'ra, biror to'g'ri chiziq tanlab olamiz (37-rasm), undagi O nuqtadan bu chiziq bo'yicha o'ng yoki chap tomonga 4 birlik (40 mm) o'lchab qo'yib, A va C nuqtalarni aniqlaymiz. So'ngra O nuqtadan AC to'g'ri chiziqqa perpendikular chiqaramiz va unga bir birlik (10 mm) o'lchab qo'yib, B nuqtani topamiz. Agar B nuqtani A va C nuqtalar bilan birlashtirsak, AOB va COB to'g'ri burchakli uchburchaklar hosil bo'ladi. Bu uchburchaklar katetlarining o'zaro nisbati $OB/OA=OB/OC= 1/4$ yoki 25 % bo'ladi.



(37-rasm)

2-misol. 20 %li qiyalik yasalsin.

Yechish. Qiyalikni foizlar, ya'ni yuz sonining ulushilarini bilan aniqlashda ham 1-misolda ko'rsatilgan usulidan foydalanishga to'g'ri keladi. Bu yerda qiyalikning 20% li bo'lishi uchun to'g'ri burchakli uchburchak katetlarining nisbati 1:5 bo'lishi kerak. Buning uchun uzunligi 100 mm bo'lgan FM to'g'ri chiziq kesmasini tanlab olib (38-rasm), unga F nuqtadan perpendikular chiqaramiz. So'ngra F nuqtadan bu perpendikular bo'yicha, yuqoriga yoki pastga 20 mm uzunlikdagi kesmani o'lchab qo'yib, N va K nuqtalarni hosil qilamiz. Belgilangan N va K nuqtalarni M nuqta bilan birlashtirsak, to'g'ri burchakli MNF va MFK uchburchaklarga ega bo'lamiz. Bu uchburchaklar katetlarining nisbati $FN/FM=FK/FM=20/100=1/5$ yoki 20 % bo'ladi.




(38-rasm)

3-misol. 14-nomerli qo'shtavr balka kesmasining profili yasalsin (39-rasm).

Yechish. Davlat standard ko'rsatmasi bo'yicha hamma qo'shtavrlar tokchasingin qiyaligi 12% ga teng, profilarning o'lchamlari ham shu Davlat standartida ko'rsatilgan jadvaldan olinadi. 14-nomer uchun profil balandligi $h=140$ mm, tokchalaming kengligi $b=73$ mm, devorining qalinligi $s=4,9$ mm, tokchalaming o'rtacha qalinligi $t=7,5$ mm hamda yumoloqlash radiuslari $R=8$ mm va $r=3$ mm.

Balka profilini yasash uchun o'zaro perpendikular bo'lgan chiziqlar chizib, ularga h va b ning kattaligini o'lchab qo'yamiz hamda devor qalinligi s ni yasaymiz. Tokchalarning qiyaligini yasash uchun ularning chetki nuqtalaridan ga teng bo'lgan kesmaning uzunligini, ya'ni mm ni o'lchab qo'yamiz. So'ngra o'rtacha qalinlikning oxirgi nuqtalaridan avvalroq yasab qo'yilgan to'g'ri burchakli uchburchaklarning gipotenuzalariga, ya'ni qiyaligi 12% bo'lgan AC va FC to'g'ri chiziqlarga parallel chiziqlar o'tkazamiz, shunda tokchalarning qiyaligi 12% bo'ladi. Keyin R va r radiuslar bilan profilning tegishli joylarini yumaloqlab chiqamiz¹⁴.

14 Chizmachilik. I Rahmonov, N. Qirg'izboyeva, A. Ashirboyev, A. Valiyev, B. Nigmanov. "VORIS-NASHIRYOT" TOSHKENT – 2016.



(39-rasm).


| Nº | 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 | 7 | 8 | 9 |
|----------|------|-----|-----|------|-----|-----|-----|-----|-----|
| h | 100 | 120 | 140 | 180 | 200 | 200 | 220 | 220 | 240 |
| b | 55 | 64 | 70 | 90 | 100 | 110 | 110 | 120 | 115 |
| s | 4,5 | 4,8 | 5 | 5 | 5,2 | 5,2 | 5,4 | 5,5 | 6 |
| t | 7,2 | 7,2 | 7 | 8 | 8,5 | 8 | 8,5 | 9 | 8,5 |
| R | 7,5 | 7,5 | 8 | 9 | 9,5 | 10 | 9 | 10 | 11 |
| r | 2,5 | 3 | 3 | 3,5 | 4 | 4 | 3,5 | 4 | 4 |
| Nº | 10 | 11 | 12 | 13 | 14 | 15 | 16 | 17 | 18 |
| h | 240 | 270 | 300 | 300 | 400 | 450 | 450 | 480 | 495 |
| b | 125 | 125 | 135 | 145 | 155 | 160 | 165 | 172 | 175 |
| s | 6 | 6 | 6,5 | 6,5 | 8 | 9 | 10 | 12 | 13 |
| t | 9 | 8 | 10 | 10,5 | 14 | 15 | 16 | 14 | 15 |
| R | 10,5 | 10 | 12 | 12 | 13 | 14 | 14 | 11 | 13 |
| r | 4 | 4,5 | 5 | 5 | 6 | 5 | 6 | 5 | 6 |
| Nº | 19 | 20 | 21 | 22 | 23 | 24 | 25 | 26 | 27 |
| h | 510 | 515 | 525 | 533 | 535 | 542 | 545 | 551 | 562 |
| b | 200 | 210 | 230 | 242 | 245 | 252 | 261 | 263 | 267 |
| s | 15 | 16 | 18 | 20 | 21 | 23 | 25 | 27 | 28 |
| t | 18 | 17 | 22 | 24 | 26 | 27 | 30 | 31 | 35 |
| R | 14 | 17 | 20 | 21 | 22 | 23 | 25 | 28 | 29 |
| r | 7 | 8 | 10 | 11 | 13 | 12 | 13 | 15 | 17 |

4-misol. 14-nomerli shveller kesimining profili yasalsin (3.81-shakl).

Yechish. Davlat standarti bo'yicha hamma shvellerlar tokchasingin qiyaligi 10% deb belgilangan. Uning profili o'lchamlari ham shu standart ko'rsatilgan jadvaldan olinadi. Bu nomer uchun profil balandligi $h=140 \text{ mm}$, tokchalaming kengligi $b=58 \text{ mm}$, devoming qalinligi $s=4,9 \text{ mm}$, tokchalaming o'rtacha qalinligi $t=8,1 \text{ mm}$, yumaloqlash radiuslari $R=8 \text{ mm}$ va $r=3 \text{ mm}$ bo'ladi.

Profil yasash uchun bu yerda ham o'zaro perpendikular bo'lgan to'g'ri chiziqlar chiziladi va ularga h hamda b ning kattaligi olib qo'yiladi, so'ngra devor qalinligi yasaladi. Tokchalaming qiyaligini yasash uchun ularning chetki nuqtalarida ga teng bo'lgan kesma uzunligi, ya'ni mm o'lchab qo'yiladi. Hosil bo'lgan nuqtalardan tokchalarga perpendikular chiziqlar chiziladi. So'ngra bularga t ning kattaligi o'lchab qo'yiladi va ulaming chetki nuqtalaridan oldinroq yasab olingan to'g'ri burchakli uchburchaklarning gipotenuzalariga, ya'ni qiyaligi 10% bo'lgan KM va KN to'g'ri chiziqlarga parallel to'g'ri chiziqlar o'tkaziladi. Natijada tokchalaming qiyaligi 1:10, ya'ni 10% hosil bo'ladi¹⁵ (40-rasm).

¹⁵ Chizmachilik. I Rahmonov, N. Qirg'izboyeva, A. Ashirboyev, A. Valiyev, B. Nigmanov. "VORIS-NASHIRYOT" TOSHKENT – 2016.



(40-rasm).

| Nº | 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 | 7 | 8 | 9 |
|----|-----|-----|-----|-----|-----|-----|-----|-----|-----|
| h | 50 | 60 | 65 | 100 | 140 | 140 | 160 | 160 | 180 |
| b | 32 | 40 | 36 | 46 | 58 | 62 | 64 | 68 | 70 |
| s | 4,4 | 4,5 | 4,4 | 5 | 4,9 | 5 | 5 | 5 | 5 |
| t | 7,5 | 7,5 | 7,2 | 7,5 | 8 | 8,5 | 8 | 9 | 8,5 |
| R | 6 | 6,5 | 6 | 7 | 8 | 7 | 8 | 8,5 | 9 |
| r | 2,5 | 3 | 2,5 | 3 | 3 | 3 | 3,5 | 3,5 | 4 |
| Nº | 10 | 11 | 12 | 13 | 14 | 15 | 16 | 17 | 18 |
| h | 180 | 200 | 200 | 220 | 220 | 240 | 240 | 245 | 248 |
| b | 74 | 76 | 80 | 82 | 87 | 90 | 92 | 94 | 95 |
| s | 6 | 6 | 5,5 | 5,5 | 6 | 6 | 7 | 8 | 8 |
| t | 9 | 9 | 10 | 9,5 | 10 | 10 | 12 | 13 | 14 |
| R | 9 | 10 | 9 | 10 | 10 | 11 | 12 | 13 | 14 |
| r | 3,5 | 4 | 4 | 4 | 4 | 4 | 4 | 5 | 5 |
| Nº | 19 | 20 | 21 | 22 | 23 | 24 | 25 | 26 | 27 |
| h | 250 | 252 | 253 | 254 | 258 | 260 | 262 | 265 | 269 |
| b | 96 | 98 | 99 | 100 | 102 | 103 | 104 | 106 | 109 |
| s | 9 | 10 | 11 | 12 | 13 | 13 | 14 | 15 | 17 |
| t | 15 | 15 | 16 | 18 | 17 | 16 | 17 | 19 | 21 |
| R | 16 | 17 | 17 | 17 | 18 | 19 | 21 | 22 | 23 |
| r | 5 | 6 | 6 | 7 | 7 | 8 | 9 | 10 | 11 |

Konuslikni belgilash va yasash. Ba'zi detallarning ayrim qismlari, masalan, tokarlik va parmalash stanoklari shpindellarining uchi konussimon bo'lib, ko'p hollarda ulardagi konuslik o'lchamini aniqlashga to'g'ri keladi.

To'g'ri doiraviy konus asosi diametrining shu konus balandligiga bo'lgan nisbatiga, ya'ni ga konuslik deyiladi. Bunda K - konuslik, D - konus asosining diametri l - konusning balandligi (uzunligi) (41-rasm).

Kesik konusda esa ikki asos, ya'ni ikki ko'ndalang kesim diametrlari ayrimasining bu asoslar orasidagi masofa nisbatiga teng, ya'ni







Bunda: K -konuslik; l -kesik konusning balandligi; D -katta asos diametri; d -kichik asos diametri.

1-misol. Konussimon detaining uzunligi $l=70$ mm, asoslari $D=30$ mm va $d=20$ mm (41-rasm). Uning konusligi K aniqlansin.


Yechish. Yuqorida ko'rsatilgan formuladan foydalanib K konuslikni topamiz: Demak, berilgan detalning konusligi 1:7 ga teng.



2-misol. Konussimon detaining konusligi ma'lum, u $K=1:7$ ga teng. Konus asoslaridan birining diametri $d=20$ mm va konus uzunligi $l=70$ mm. Konus ikkinchi asosining diametri D aniqlansin.

Yechish. $D=d+Kh$ formuladan foydalanib, D ni topamiz. Demak, ekan (41-rasm).




(41-rasm)






1.8. Tutashmalar. Tutashma elementlari bor detal konturini chizish (ko'za, amfora). O'ramalar. Sirkul egri chiziqli naqsh. Ovallar.

Detalning konturlarini chizishda to'g'ri chiziqning aylana bilan yoki ikkita aylananing o'zaro ravon o'tishini tasvirlashga to'g'ri keladi. Bunday ravon o'tish tutashma deyiladi. To'g'ri chiziq va aylana yoqlarining o'zaro ravon o'tadigan joyi A tutashtirish (o'tish) nuqtasi, tutashtirishni ta'minlaydigan O markaz tutashtirish markazi deyiladi (42-rasm).




42-rasm




43-rasm

Aylanaga urinma o'tkazish. Aylana radiusikesishayotgan A nuqtadan radiusga perpendikulyar chiziq o'tkazilsa, aylanaga urinma chizilgan boladi (43-rasm). Aylanadan tashqaridagi T nuqtadan aylanaga urinma o'tkazishda aylana markazi O bilan T nuqta tutashtiriladi va OT masofa teng ikkiga bolinadi. OX nuqtadan O va T nuqtalar orqali o'tuvchi aylana yoyi chiziladi va uning aylana bilan kesishgan A nuqtasi O bilan tutashtiriladi. T va A nuqtalar tutashtirilsa, aylanaga T nuqtadan urinma o'tkazilgan ($AT \perp OA$) hisoblanadi (44-rasm).




44-rasm.

Radiuslari har xil bolgan ikkita aylanaga urinma o'tkazish uchun ularning markazlari o'zaro tutashtiriladi va OO₁ masofa teng ikkiga bo'linadi (45-rasm). O₂ nuqtadan har ikkala aylana markazlaridan o'tadigan yordamchi R-R₁, radius bilan O dan yordamchi kichik aylana chizilsa, O₂ dan chizilgan yordamchi aylanani T nuqtada kesadi. O₁ va T nuqtalar birlashtirilsa, yordamchi kichik aylana urinadigan chiziq hosil bo'ladi. O va T nuqtalar tutashtirilib, davom ettirilsa, O markazli aylanani A nuqtada kesadi. O₁ dan OAg'a parallel chizib, O₁ markazli aylanada B nuqta topiladi. A va B nuqtalar tutashtirilsa, ikkita aylanaga urinma o'tkazilgan bo'ladi (45-rasm).




45-rasm.

Diametrlari turlicha bo'lgan ikkita aylanaga OO₁ oralig'ida kesadigan urinma o'tkazishda markazlari tutashtirilib, OO₁ masofa teng ikkiga bo'linadi. O₂ nuqtadan O va O₁ lar orqali o'tuvchi yordamchi aylana chiziladi. O nuqtadan O va O₁ lar orqah o'tuvchi yordamchi aylana chiziladi. O muitadan R+R₁ radius bilan yordamchi aylana yoyi chizilib, T nuqta topiladi. T va O nuqtalar o'zaro tutashtirilib, A nuqta hosil qilinadi. O₁ dan OTga parallel chizib, B nuqta aniqlanadi. A va B nuqtalar tutashtirilib, aylanalarga urinma o'tkaziladi (46-rasm).



46-rasm


Burchaklarni yumaloqlash. Ikkita to'g'ri chiziq o'zaro kesishib, o'tkir, o'tmas va to'g'ri burchak hosil qiladi. Ularni aylana yoy bilan yumaloqlash uchun yumaloqlash radiusi R masofada burchak ichki tomonlarida ularga parallel to'g'ri chiziqlar o'tkazilib, ular o'zaro keshishtiriladi. Shunda tutashtirish markazi O hosil boladi. O dan burchak 1 tomonlariga perpendikulyar o'tkazilib, tutashtirish nuqtalari A va B lar. O nuqta orqali burchak yumaloqlanadi (47-rasm, a, b, c).



47-rasm


O_1, O_2 markazli aylanalarni uchinchi O markazli aylana tashqi tomoni bilan urinib o'tsa (48-rasm) tashqi, ikkala aylanani o'z ichiga olib urinsa (49-rasm) ichki tutashmalar hosil boladi. Tashqi tutashmada O markazni topish uchun O_1

dan $R+R_1$ radius bilan yoy, O_2 dan $R+R_2$ radius bilan yoy chizilib, ular o'zaro kesishtiriladi.






48-rasm.

Ichki tutashmada O markazni aniqlashda O_1 dan $R-R_1$ O_2 dan $R-R_2$ bilan chizilgan yoylar o'zaro kesishtiriladi.




49-rasm.







1-variant




2-variant




3-variant




4-variant




5-variant





6-variant



7-variant



8-variant



Testlar

1. Eng qulay o'lcham qo'yish usuli - ...

A) Kombinatsiyalashgan

B) Zanjirsimon

C) Koordinata

D) Strelkani 45° chiziqchaga almashtirish

2. Standartda qaysi chizma shrifti belgilanmagan?

A) 22

B) 40

C) 10

D) 14

3. Uzun detallar chizmada qanday qisqartiriladi?

A) Uzib tasvirlash orqali

B) Masshtabni o'zgartirib

C) Masshtabni o'zgartirmsandan

D) Kichraytirib tasvirlanadi

4. Qanday holatda masshtab soni oldiga M harfi qo'yilmaydi?

A) Asosiy yozuvning grafasiga yozilganda

B) Chizma ustiga yozilganda

C) Chizma ostiga yozilganda

D) Mahalliy qirqimda

5. Turli radiuslar bilan chizilgan aylana yoqlaridan iborat

ochiq va ravon egri chiziq nima deb ataladi?

A) O'rama

B) Oval

C) Giperbola

D) Aylana evolventasi

6. Standart talabiga mos kelmaydigan kattalashtirish

masshtabini toping.

A) 75:1

B) 40:1

C) 2,5:1

D) 50:1

7. To'g'ri yozilgan masshtab belgisini toping.

A) M2:1

B) m2 : 1

C) Masshtab 2:1

D) M=2:1

8. Davlat standarti talablariga mos keladigan kichraytirish masshtabini toping.

A) 1:75

B) 1:30

C) 1:60

D) 1:250

9. Lekalo egri chiziqlari safiga kirmaydigan chiziq –

A) Oval

B) Ellips

C) Evol'venta

D) Parabola

10. Chizmachilik shriftining o'lchami qanday aniqlanadi?

A) Bosh harflarning balandligi bo'yicha

B) Kichik harflarning balandligi bo'yicha

C) Kichik raqamlarning balandligi bo'yicha

D) Bosh harflarning eni bo'yicha

11. Bir nechta parallel yoki kontsentrik aylanalar markazidan o'tuvchi o'lcham chiziqlari bir-biriga yaqin masofada o'tkazilganda, ular ustiga qo'yiladigan o'lcham sonlari qanday tartibda joylashtiriladi?

A) Shaxmat tartibida

B) Ustma-ust tartibda

C) O'lcham sonlari ko'rsatilmaydi

D) Ikkitadan biri ko'rsatiladi

12. Davlat standartiga asosan A3 formatning o'lchamlari qanday?

A) 297x420

B) 297x210

C) 594x420

D) 594x841

13. Standartga asosan kichraytirish masshtabini aniqang.

A) M1:2

B) 2:1

C) M1:1

D) 1:1

14. Tashqi tutashma bajarish uchun tutashma radiusi bilan aylana radiusi o'rtasida qanday arifmetik munosabat o'rnatiladi?

- A) Qo'shish
- B) Ko'paytirish
- C) Ayirish
- D) Ayirish va qo'shish

15. Ichki tutashma bajarish uchun tutashma radiusi bilan aylana radiusi o'rtasida qanday arifmetik munosabat o'rnatiladi?

- A) Ayirish
- B) Qo'shish
- C) Ko'paytirish
- D) Ayirish va qo'shish

16. Ikki urinuvchi aylananing urinish (o'tish) nuqtasi qanday chizikda yotadi?

- A) Aylanalarning markazlarini birlashtiruvchi to'gri chiziqda
- B) Aylananing ixtiyoriy radiusida
- C) Aylanalarning markazida
- D) Aylanalarga ixtiyoriy o'tkazilgan urinmada

17. Qiyalik belgisining o'tkir burchagi qaysi tomonga qaragan bo'ladi?

- A) Qiyalik tomonga
- B) Ixtiyoriy tomonga
- C) Faqat o'ng tomonga
- D) Faqat chap tomonga

18. w1:4 belgi nimani ifodalaydi?

- A) Konuslik
- B) Burchak bo'linishi
- C) Uchburchak yuzasining nisbati
- D) Diametr

19. Standartga asosan A4 formatning o'lchamlari qanday?

- A) 297x210

B) 594x420

C) 297x420

D) 841x594

20. Qaysi o'lchamdagি formatni faqat vertikal holda foydalanishga ruxsat beriladi?

- A) A4
- B) A3
- C) A1
- D) A2

21. Standartga asosan kattalashtirish masshtabini aniqlang.

- A) M2:1
- B) 2:1
- C) M1:1
- D) M1:2

22. Kichraytirish masshtablaridan eng kattasi qaysi?

- A) M1:100
- B) M1:4
- C) M1:2
- D) M1:10

23. Standartga asosan to'g'ri belgilangan masshtabini aniqlang.

- A) M 1:1
- B) 1:3
- C) 1:2M
- D) M 3:1

24. Bosh harf 14 shrift o'lchamida bo'lsa, yozma harflar qanday o'lchamda yoziladi?

- A) 10
- B) 14
- C) 7
- D) 3.5

25. R qanday shartli belgi?

- A) Radius
- B) Konuslik
- C) Burchak
- D) Qiyalik

26. Φ qanday shartli belgi?
- Diametr
 - Qiyalik
 - Konuslik
 - Uchburchak
27. Qaysi chiziq lekalo egri chizig'iga taalluqli emas?
- O'ramalar
 - Evolventa
 - Epitsikloida
 - TSikloida
28. Chizma chizishda shtrix chiziqlar qanday holatlarda qo'llaniladi?
- Ko'rinas konturlarni tasvirlashda
 - Kesim yuzalarini shtrixlashda
 - O'lcham qo'yishda
 - Qirqim yuzalarini shtrixlashda
29. 10-shriftning yozma harflari balandligi nechaga teng?
- 7 mm
 - 14 mm
 - 10 mm
 - 5 mm
30. Uzunligi, eni va qalinligiga nisbatan katta bo'lgan detallar chizmada qanday tasvirlanadi?
- Uzib
 - Kichiklashtirib
 - O'z kattaligida
 - Masshtablardan foydalanib
31. Standartga muvofiq yo'g'on tutash chiziqning o'lchami qaysi javobda berilgan?
- $0,6+1,5$ mm
 - $0,2+0,6$ mm
 - 1,7 mm
 - 0,3 mm
32. Qaysi javobda faqat konus kesimlari berilgan?
- Ellips, kesishuvchi ikkita to'g'ri chiziq, aylana, giperbola, parabola
 - Parabola, oval, eppips, giperbola, kesishuvchi ikkita chiziq
 - Aylana, parabola, ellips, giperbola, sinusoida
 - Kesishuvchi ikkita chiziq, aylana, evolventa, parabola, tsikloida
33. Qaysi javobda lekalo egri chiziqlari belgilanmagan?
- Aylana, ko'pyoqlik, ovoid
 - Ellips, evol'venta, sikloida, Arximed spirali
 - Giperbola, parabola, sikloida, evol'venta
 - Giposikloida, astroïda, evol'venta
34. Sirkul egri chiziqni aniqlang.
- Ovoid
 - Arximed spirali
 - Ellips
 - TSikloida
35. Qaysi sirtni tekislik bilan kesganda o'zaro parallel to'g'ri chiziqlar hosil bo'ladi?
- Silindr
 - Ellipsoid
 - Sfera
 - Konus
36. Markazlari O1 va O2 nuqtalarda bo'lgan teng radiusli aylanalarini tutashtiruvchi yoyning markazi — O nuqta qaerda bo'ladi?
- O1O2 kesmani teng ikkiga bo'luvchi o'rtalari perpendikulyarda
 - Aylanalarning ixtiyoriy radiuslari davomida
 - Tomonlari O1O2 ga teng bo'lgan teng tomonli uchburchak uchida
 - Aylana radiusiga perpendikulyar bo'lgan chiziqda
37. Qanday hollarda detal chizmada uzib tasvirlanadi?
- Ko'ndalang kesimi o'zgarmaydigan uzun detallarda
 - Chizmaga sarflanadigan vaqtini tejash uchun
 - Chizmani format varag'iga sig'dirish uchun
 - Chizmani soddalashtirish uchun
38. Qaysi sirtni tekislik bilan kesganda o'zaro kesishuvchi

to'g`ri chiziqlar hosil bo'ladi?

- A) Konus
- B) Silindr
- C) Ellipsoid
- D) Sfera

39. Konuslik belgisining uchi qaysi tomonga qaratib qo'yiladi?

- A) Konus uchi tomoniga
- B) Faqat o'ng tomonga
- C) Faqat chap tomonga
- D) Ixtiyoriy tomonga

40. Davlat standartiga mos kelmaydigan format o'lchamlarini belgilang.

- A) 290x800
- B) 297x210
- C) 594x420
- D) 297x420

41. Harflar orasidagi masofa a shrift chiziq yo'g'onligi daga nisbatan qancha olinadi?

- A) $a=2d$
- B) $a=1d$
- C) $a=1,5d$
- D) $a=3d$

42. Ikkita aylana yollariga urinib o'tuvchi uchinchi aylana radiusiga nima deyiladi?

- A) Tutashtirish radiusi
- B) O'tish nuqtasi
- C) Tutashtirish markazi
- D) Tutashtirish nuqtalari

43. 20-shriftning yozma harflari balandligi nechaga teng?

- A) 14 mm
- B) 7 mm
- C) 10 mm
- D) 5 mm

44. Standartga asosan qaysi javobda sandart shriftlar o'lchamlari to'liq ko'rsatilgan?

- A) 2,5;3,5;5;7;10;14;20;28;40;
- B) 2,5;3,5;4;5;7;10;14;20;28;40;
- C) 2,5;3;3,5;4;5;7;10;14;20;28;40;
- D) 2,5;3;4;5;14;28;40;

45. Ko'z bilan chamalab o'quv qurollaridan foydalanmasdan, masshtab qoidalariga rioya qilmay bajarilgan tasvir nima deyiladi?

- A) Eskiz
- B) Texnik rasm
- C) Ishchi chizma
- D) Kompleks chizma

46. Buyumning chizmasida ko'rinar konturlar qanday chiziq bilan tasvirlanadi?

- A) Yo'g'on tutash chiziqda
- B) Ingichka tutash chiziqda
- C) Shtrix chiziqda
- D) Shtrix-punktir chiziqda

47. Buyum chizmasida o'qlar qanday chiziq bilan tasvirlanadi?

- A) Shtrix-punktir chiziqda
- B) Shtrix chiziqda
- C) Yo'g'on tutash chiziqda
- D) Ingichka tutash chiziqda

48. O'lcham va chiqarish chiziqlari qanday chiziq turidan foydalanib bajariladi?

- A) Ingichka tutash chiziqda
- B) Shtrix chiziqda
- C) Shtrix-punktir chiziqda
- D) Siniq chiziqda

49. Qalamdagi TM yoki HB belgi uning qandayligini ko'rsatadi?

- A) O'rtacha yumshoqligini
- B) Yumshoqligini
- C) Juda yumshoqligini
- D) O'ta qattiqligini

GLOSSARY

| Termin | O'zbek tilidagi sharhi | Ingliz tilidagi sharhi |
|--------------------------|---|---|
| Dars ishlamasi | Ta'limiylar mazmunga ega loyiha va o'qituvchi tomonidan tuzilishi majburiy bo'lgan hujjat | An obligatory document completed by a teacher and a project that has educational essence |
| Lesson planning | | |
| Dramatik o'yinlar | Psiyologik hamda ijtimoiy masalalarni hal qilishga yo'naltirilgan o'yinlar | Games intended for solving psychologic and social issues |
| Dramatic games | | |
| Didaktik o'yinlar | O'rjanilayotgan obyekt, hodisa, jarayonlarni modellashirish asosida talabalarning bilishga bo'lgan qiziqishlari, faoliyklarini oshiradigan o'quv faoliyat turi | A type of a study activity that increases activeness, interest of students in getting knowledge based on the modeling of processes, events, objects that are being studied |
| Didactic games | | |
| Ijodiy loyihalar | Individual yoki hamkorlik asosida ijodiy xarakterga ega yangi ta'lim mahsulotlari (ijodiy hisobot, ko'rgazma, dizayn, videofilm, nashr ishlari – kitob, almanax, buklet, albom, bosma va elektron jurnal, kompyuter dasturlari kabilar)ni yaratishga yo'naltirilgan loyihalar | The projects intended to creat new educational products (activity report, exhibition, design, videofilm, publishing works: books, literary miscellany, pamphlets, albums, printed and electronic journals, computer programmes) that have creative characteristics based on cooperation and individual activity |
| Creative projects | | |

| | | |
|-----------------------------|--|--|
| Imitatcion o'yinlar | Ishlab chiqarish korxonalar, ish o'rnlari, firmalar, tashkilotlarda xodimlar tomonidan amalga oshiriladigan faoliyatni imitatciyalash (taqlid qilish, ko'chirish) asosida talabalarni muayyan amaliy yoki kasbiy faoliyatga samarali tayyorlashga yo'naltiradigan o'yinlar | Activities aimed at effective preparing students for certain activities based on imitation of activity carried out by employees of organizations, companies, factories |
| Individual ta'lim | Ta'lim jarayonida o'qituvchining faqatgina bir nafar talaba bilan yoki talabaning ta'lim vositalari (adabiyotlar, kompyuter, televidenye, radio va b. axborot texnologiyalar) bilan o'zaro hamkorligi asosida o'quv materiallarining o'zlashtirilishini ta'minlashga yo'naltirilgan ta'lim | Education aimed at developing of mastering skills of a student in cooperatuion with a single student or educational means (literature, computer, television, redio, etc.) during educational process |
| Innovations ta'lim | Talabada yangi g'oya, me'yor, qoidalarni yaratish, o'zga shaxslar tomonidan yaratilgan ilg'or g'oyalilar, me'yor, qoidalarni tabiiy qabul qilishga oid sifatlar, malakalarni shakllantirish imkoniyatini yaratadigan ta'lim | Education that allows to develop skills and qualities f a student |
| Innovative education | | |

| | | |
|---|---|---|
| Innovatsion faoliyat | Yangi ijtimoiy talablarining an'anaviy me'yorlarga mos kelmasligi yoki yangi shakllanayotgan g'oyalarning mavjud g'oyalarni inkor etishi natijasida vujudga keladigan majmuali muammolarni yyechishga qaratilgan faoliyat | An activity carried out for solving a set of problems that occur as a result of rejecting new developing ideas or inappropriateness of new social requirements to traditional standards |
| Innovatsiya Innovation | Muayyan tizimning ichki tuzilishini o'zgartirishga qaratilgan faoliyat | An activity aimed at changing the internal structure of a certain system |
| Interfaol ta'lif Interactive aducation | Talabalarning bilim, ko'nikma, malaka va muayyan axloqiy sifatlarni o'zlashtirish yo'lidagi o'zaro harakatini tashkil etishga asoslanuvchi ta'lif | The education based on organization of interaction in mastering by students certain moral qualities, skills and knodlegde |
| "Keys-stadi" texnologiyasi "Case study" technology | Muammoli vaziyat; talabalarda aniq, real yoki sun'iy yaratilgan muammoli vaziyatni tahlil qilish orqali eng maqbul variantlarini topish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladigan texnologiya | A technology that forms skills in earching for proper variants by analizing created or authentic dilemma (problematic situation) or problems |

| | | |
|---|--|--|
| Loyihalash Projecting | Boshlang'ich ma'lumotlar, aniq belgilangan vaqt, maxsus tanlangan shakl, metod va vositalarga tayanib, kutiladigan natijani taxmin qilish, bashoratlash, rejalashtirish orqali avvaldan faoliyat modelini tuzish, faoliyat yoki jarayon mazmunini ishlab chiqishga qaratilgan amaliy harakat | An action aimed at developing the essence of an activity or process, acivity model by assuming, predicting, planning an expected result based on the initial information, specifically chosen form, method and means |
| Loyiha Project | Aniq reja, maqsad asosida uning natijalani-shini kafolatlagan holda pedagogik faoliyat mazmunini ishlab chiqishga qaratilgan harakat mahsuli | A result of an action aimed at developing the essence of pedagogical activity based on a certain plan, aim and by guaranteeing its effectiveness |
| Loyiha metodi Amethod of project | O'quv jarayonini individuallashtirish, talabaning o'zini mustaqil namoyon qilishini reja-lashtirish, o'z faoliyatini oqilona tashkillashtirish va nazorat qilish imkoniyatini beradigan ta'lif metodlari majmui | A set of educational methods that allow individualization of educational process, independent planning of students' performance, control and proper organization of an activity |

| | | |
|--|---|--|
| Loyiha ta'limi A study of project | Ta'limiy xarakterdagi aniq reja, maqsad asosida uning natijalanishini kafolatlagan holda pedagogik faoliyat mazmunini ishlab chiqishga yo'naltirilgan ta'lim | Education aimed at developing the essence of pedagogical activity by guaranteeing the effectiveness of a plan and aim that have educational characteristics |
| Masofaviy ta'lim Distance learning | Muayyan nuqtadan axborot-kommunikatsiya vositalari (video, audio, kompyuter, multimedia, radio, televideeniye va b.) yordamida ta'lim xizmatlarini ko'rsatish, ta'limiy mahsulotlarni tarqatish va yetkazib berishdagi an'anaviy hamda innovatsion shakl, metod, vositalarga asoslangan holda ta'lim resurslaridan foydalanish-ga yo'naltirilgan ta'lim | Education aimed at using study resources based on innovative form, method and means in organizing study services, expanding and delivering study products with the help of certain information communication means (video, audio, computer, multimedia, radio, television, etc.) |
| Masofaviy ta'lim texnologiyalari Distance learning technologies | Ta'limning belgilangan mazmun asosida amalga oshirilishini ta'minlashga yo'naltirilgan shakl, metod va vositalar majmuasidir | A set of forms, methods and means used for increasing effectiveness of education and educational process |

| | | |
|---|---|--|
| Modernizatsiya Modernization | Obyektning yangi talablar va me'yorlar, texnik ko'rsatmalar, sifat ko'rsatkichlariga mos ravishda yangilanishi | Renewal of the object according to the new requirements, quality indicators and technical regulations |
| Muammoli vaziyat Dilemma | Talabalarning ma'lum topshiriqlarni bajarish (masalani yechish, savolga javob topish) jarayonida yuzaga kelgan ziddiyatni anglashi bilan bog'liq ruhiy holati bo'lib, u hal etilayotgan masala bilan bog'liq yangi bilimlarni izlashni taqazo etadi | It is a psychological state of a student that is related with tension that occurs during a process of accomplishing the assignments, and it requires to master skills, knowledge for successful and effective accomplishment |
| Muammoli ma'ruza A problem lecture | O'qituvchi tomonidan talabani muammoli vaziyat, muammoli masalani hal etishga yo'naltirish orqali unda bilish faoliyatini oshirishga yo'naltirilgan ma'ruza | A lecture aimed at increasing students' study activity in solving an issue or dilemma |
| Muammoli ta'lim Problem education | Talabalarda ijodiy izlanish, kichik tadqiqot-larni amalga oshirish, muayyan farazlarni ilgari surish, natijalarni asoslash, ma'lum xulosa-larga kelish kabi ko'nikma va malakalarini shakl-lantirishga yo'naltirilgan ta'lim | Education aimed at developing students' competence and skills in carrying out creative researches, promoting certain theories, reasoning the results, coming to some conclusions |

| | | |
|--|---|---|
| Muammoli ta'lif texnologiyalari | Talabalarda ijodiy izlanish, kichik tadqiqotlarni amalga oshirish, muayyan farazlarni ilgari surish, natijalarni asoslash, ma'lum xulosalarga kelish kabi ko'nikma va malakalarni shakllantirishga xizmat qiladigan ta'lif texnologiyalari | The technologies that develop students' competence and skills in carrying out creative researches, promoting certain theories, reasoning the results, coming to some conclusions |
| Mustaqil ta'lif | OTM talabalarida pedagog rahbarligi va nazorati ostida o'quv hamda mutaxassislik fanlari bo'yicha ma'ruza, seminar va amaliy mashg'ulotlarida egallangan BKMni mustahkamlash, boyitish, ular tomonidan yangi BKMni mustaqil o'zlashtirilishini ta'minlash, ularni kasbiy faoliyatni mustaqil tashkil eta olishga tayyorlashga yo'naltirilgan ta'lif | education aimed at preparing the students of higher educational institutions for independent organization of professional activity, self-mastering and improving skills and competence obtained in lectures, seminars and practical lessons on specialized study subjects under the supervision and control of pedagogs |
| Pedagogik muammo | Hal qilinishi zarur, biroq, hali yechish usuli noma'lum bo'lgan pedagogik xarakterdagi masala | A pedagogical issue that must be solved but has uncertain ways of solution |
| Repetitorlik ta'limi | Individual ta'lifning eng ommalashgan zamonaviy turi | A modern type of popular individual learning |
| Tutoring | | |

| | | |
|--------------------------------|--|---|
| Rivojlanish Development | Shaxsning fiziologik hamda intellektual o'sishida namoyon bo'ladigan miqdor va sifat o'zgarishlar mohiyatini ifoda etuvchi murakkab jarayon | A complicated process of qualitative and quantitative changes in individual's physiological and intellectual development |
| Rivojlantiruvchi ta'lif | Talabalarning ichki imkoniyatlarini rivojlan-tirish va ularni to'la ro'yobga chiqarishga yo'naltirilgan ta'lif | Education aimed at revealing and developing student's inner capacities |
| Texnologik xarita | Ta'lif jarayonni bajaruvchi yoki ma'lum obyektga texnik xizmat ko'rsatuvchi pedagoglarga taqdim etiladigan barcha zarur ma'lumotlar, ko'rsatmalarini o'z ichiga olgan hujjat | A document that comprises all necessary information that is represented to pedagogues that lead educational processes or those who carry out technical services to a certain object |
| Distant auditoriums | Bir oliy o'quv yurtida tashkil etilayotgan o'quv kurslari, ma'ruza va seminarlarning undan uzoq masofada joylashgan ta'lif muassasalarining o'quv auditoriyalariga telekommunikatsiya vositalari orqali sinxron teleko'rsatuv, videoanju-man va radio eshitirish ko'rinishida uzatilishi | A transmission of courses, lectures and seminars to classrooms or lecture halls in remote places organized in universities (colleges) via telecommunication means in the form of synchronous TV or radio programs, video forums |

| | | |
|---|---|---|
| O'zin texnologiyalari (o'zin ta'lumi) | Ijtimoiy tajribalarni o'zlashtirishning barcha ko'rinishlari: bilim, ko'nikma, malaka hamda hissiy-baholovchi faoliyat jarayonini hosil qilishga yo'naltirilgan shartli o'quv vaziyatlarini ifodalovchi shaxsga yo'naltirilgan ta'lum (pedagogik texnologiya) turlaridan biri | One of the types of education (pedagogical technologies) aimed at creating a process of emotional and assessment activity as well as skills and competence that are the forms of mastering various social experiences by a student |
| O'quv loyihasi Learning project | 1) talablarning muammolarni izlash, tadqiqot qilish va yechish, natija (yechim)ni mahsulot ko'rinishida rasmiylash-tirishga qaratilgan mustaqil o'quv faoliyatini tashkil etish usuli; 2) nazariy bilimlar asosida amaliy topshiriq-larni yechishga qaratilgan o'quv harakati vositasi; 3) rivojlantirish, tarbiyalash, ta'lim berish, bilimlarni boyitish, mustahkamlash va malakalarni shakllantirish-ga yo'naltirilgan didaktik vosita | 1) a method of organizing an independent learning activity carried out by students for searching, studying and solving the problems and representing a result in the form of a product; 2) means of learning activities carried out by students for accomplishing the practical assignments based on theoretical knowledge; 3) a didactic mean that develops, educates, increases knowledge and develops skills, competence |

| | | |
|---|---|--|
| O'quv topshiriqlari Study assignments | O'rganilayotgan mavzu bo'yicha talabalar tomonidan o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalar darajasini aniqlashga xizmat qiladigan ta'limi vazifalar yig'indisi | A set of learning assignments that allows to identify the level of knowledge, skills and competence of students on a certain subject |
| Hamkorlik ta'limi Cooperation education | O'quv jarayonida talabalarning jamoada, kichik guruh va juftlikda bilimlarni birgalikda o'zlashtirishlari, o'zaro rivojlanishlari, "pedagog-talaba(lar)" munosabati-ning hamkorlikda tashkil etilishini ifodalovchi ta'lum | Education based on cooperation of a teacher and student, and cooperation of students for mastering learning materials and improving in a team, small groups or in pairs in a learning process |
| Hamkorlik ta'limi texnologiyalari Cooperation education technologies | O'quv jarayonida talabalarning jamoada, kichik guruh va juftlikda bilimlarni birgalikda o'zlashtirishlari, o'zaro rivojlanishlari, shuningdek, "pedagog-talaba(lar)" munosabatining hamkorlikda tashkil etilishini ta'minlovchi ta'limi xarakterdagи texnologiyalar | Educational technologies that allow to establish relationships based on cooperation of a teacher and student, and cooperation of students for mastering learning materials and improving in a team, small groups or in pairs in a learning process |

CHIZMACHILIK ATAMALAR VA TUSHUNCHALAR BO'YICHA YIG'MA LUG'AT.

| | |
|--|--|
| Aylanma yoki aylanish sirt | biror to'g'ri chiziqni, tekis yoki fazoviy egri chiziqni qo'zg'almas o'q atrofida aylanishidan hosil bo'lgan sirt |
| Dodekaedr | yon yoqlari 12 muntazam uchburchaklardan iborat bo'lgan qavariq ko'pyoqlik sirt yoki muntazam o'n ikki yoqlik |
| Ekssentrik sferalar usuli | murakkab aylanma sirlarning kesishuv chizig'ini aniqlashda qo'llaniladigan usul |
| Geksoedr | muntazam 6 yoqlik |
| Ikkinci tartibli aylanish sirtlar | ikkinci tartibli egri chiziqlarning o'z o'qlaridan biri atrofida aylanishidan hosil bo'lgan sirtlar |
| Ikkinci tartibli sirtlar | biror to'g'ri chiziq bilan maksimum ikki nuqtada kesishgan sirtlar yoki tenglamasining darajasi ikkiga teng sirtlar. |
| Ikosoedr | yon yoqlari 20 muntazam uchburchaklardan iborat bo'lgan qavariq ko'pyoqlik sirt yoki muntazam 20 yoqlik. |
| Kirish va chiqish nuqtalari | to'g'ri chiziqlarni sirt bilan kesishish nuqtalari |
| Ko'pyoq | bir necha tekisliklarni kesishuvidan hosil bo'lgan shakl |
| Ko'pyoq qirrasi | ko'pyoqlik yoqlarining kesishuv chiziqlari |
| Ko'pyoqlik | tomonlari tekis uchburchak yoki ko'pburchaklar bilan chegaralangan qirrali sirt |
| Ko'pyoqlik uchi | ko'pyoqlik qirralarining kesishuv nuqtalari |
| Konsentrik sferalar usuli | aylanma sirlarning o'zaro kesishuv chizig'ini yasashda qo'llaniladigan usul |
| Kub | yoqlari 6 ta kvadratlardan iborat bo'lgan qavariq ko'pyoqlik sirt |
| Oktaedr | asosi kvadrat va yon yoqlari 8 ta muntazam uchburchaklardan iborat bo'lgan qavariq ko'pyoqlik sirt |


| | |
|---|--|
| Piramida | asosi uchburchakyoki ko'pburchak yon yoqlari umumiy uchga ega bo'lgan uchburchaklardan iborat bo'lgan qirrali sirt |
| Platon jismlari | muntazam ko'pburchaklardan iborat yonlarga, o'zaro teng ikki yoqli burchaklarga va o'zaro teng qirralarga ega bo'lgan (tetraedr, kub, oktaedr, dodekaedr, ikosaedr) qavariq ko'pyoqlik sirtlar |
| Prizma | asoslari o'zaro parallel bo'lib, uchburchak yoki ko'pburchaklardan yon yoqlari to'rburchaklardan iborat qirrali sirt |
| Prizmatoid | asoslari parallel tekisliklarda yotgan ikkita ko'pburchakdan yon yoqlari esa ikkala asos uchlaridan iborat uchburchaklar va trapetsiyalardan iborat bo'lgan qavariq ko'pyoqlik sirt |
| Qavariq ko'pyoqlik | yoqlari bir tomonida joylashgan ko'pyoqlik |
| Qirrali sirt kesim yuzasi | qirrali sirt bilan tekslik kesishishidan hosil bo'lgan shakl |
| Siklik sirt | markazlari egri chiziqli yo'naltiruvchi bo'ylab harakatlanuvchi aylana hosil qilgan sirt |
| Sirt | biror chiziq yoki sirtning fazoda uzluksiz harakatlanishi natijasida hosil bo'lgan geometrik shakl. |
| Sirlarning o'zaro kesishish chizig'i | ikki kesishuvchi sirtlar uchun umumiy bo'lgan nuqtalarning geometrik o'rni |
| Sirtning klassi | biror to'g'ri chiziqdan sirtga o'tkazilgan urinma tekisliklarning eng ko'p soni bilan aniqlanadi |
| Tetraedr | yoqlari to'rtta muntazam uchburchaklardan iborat bo'lgan piramida |

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati

1. 1. Murodov Sh.K., Hakimov L.Q., Xolmurzayev A. Chizma geometriya. -T: "Iqtisod-moliya", 2006.
2. Raxmanov I., (Qirg'izboyeva N., Ashirboyev A., Valiyev A., Nig'manob B. Chizmachilik. "Voris-Nashriyot"- Toshkent-2016.
3. Raxmanov I., Abduraxmanov I. Chizmachilikdan ma'lumotnoma. "Alisher Navoyi nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashiryoti. Toshkent-2005.
4. Qulnazarov B.B. Chizma geometriya. -T: "O'zbekiston", 2006.
5. Иматуллаев Р. Чизма геометрия. -Т.: "ТДПУ ризографи", 2003.
6. Valiyev A.N. Perspektiva. -T: "Voris nashriyot", 2009.
7. Murodov Sh.K., Tashimov N., "Grafika tarixi va taraqqiyoti" Toshkent-2010.
8. Geometrik va proyekzion chizmachilik. "URGANCH" -2012.
9. Chizmachilik. I Rahmonov, N. Qirg'izboyeva, A. Ashirboyev, A. Valiyev, B. Nigmanov. "VORIS-NASHIRYOT" TOSHKENT – 2016.
10. Rahmonov I., Qirg'izboyeva N., Ashirboyev A., Valiyev A., Nigmanov B. Chizmachilik. -T: "Voris nashriyot", 2016.
11. Ismatullaev R.Q. va Hoshimova X. Chizma geometriya. -T: "TDPU rizografi", 2005.
12. J.Yodgorov, "Geometrik va proyekzion chizmachilik", T.; "Fan". 2008.
13. J.Yodgorov, Mashinasozlik chizmachiliqi, T, O'zbekiston, 2009.
14. I.Rahmonov, A.Valiev. Chizmachilik, "Voris-nashriyot" T.; 2011.
15. A.Valiev. Chizmachilik (Geometrik chizmachilik), T.; TDPU rizografi, 2013.
16. Chizmachilik va muhandislik grafikasi o'quv qo'llanma / N.N.Achilov. - Toshkent: BOOK TRADE 2022, 2022.-164 b.
17. Chizmachilik o'quv qo'llanma / B.B.Ko'kiyev. - Toshkent: BOOK TRADE 2022, 2022.-237 b.
18. M.B.Shah, B.C.Rana. Engineering Drawing, India by Sai Print-O-Pac Pvt.Ltd, India, 2007, 2009.
19. А.А.Чекмарев, Начертательная геометрия и черчение, М., Высшее образование, 2006.
20. M.Xalimov, Z.Mirzaliyev, F.Ochilov. Chizmachilik (geometrik va proyekzion chizmachilik) T.; "Adabiyot uchqunlari", 2019.

MUNDARIJA

| | |
|---|-----|
| Kirish..... | 5 |
| I-BOB. MUHANDISLIK GRAFIKASI FANLARINING RIVOJLANISH BOSQICHLAR. | |
| 1.1 Chizmachilik fani, uning maqsad va vazifalari. Chizmaning inson amaliy faoliyatidagi ahamiyati..... | 5 |
| 1.2 Chizmaning O'rta Osiyo va jahoning boshqa hududlarida rivojlanishi..... | 6 |
| 1.3 Standart haqida ma'lumotlar. Konstrukturlik hujjatining yagona tizimi (KXYAT) haqida ma'lumot..... | 15 |
| 1.4 Chizmachilik asboblari va jixozlari..... | 19 |
| 1.5 Chizma qog'ozlari va bichimlari. Kattalashtirish va kichiklashtirish mashtablari..... | 24 |
| 1.6 Chiziq turlari. Chizmadagi shartliliklar. O'lcham qo'yish qoidalari. Tekis shaklga o'lcham qo'yish..... | 27 |
| II-BOB. GEOMETRIK CHIZMACHILIK. | |
| 1.7 Oddiy geometrik yasashlar (kesmani, aylanalarini, burchakni teng bo'laklarga bo'lish). Sirkul egri chiziqlari, lekalo egri chiziqlari. Qiyalik va konuslik..... | 40 |
| 1.8 Tutashmalar. Tutashma elementlari bor detal konturini chizish (ko'za, amfora). O'ramalar. Sirkul egri chiziqli naqsh.Ovallar..... | 90 |
| Test..... | 100 |
| Gloossariy..... | 108 |
| Adabiyotlar..... | 120 |



Q.Sh. Bekqulov

CHIZMACHILIK

(geometrik chizmachilik)

1-qism

Muharrir: X. Tahirov

Texnik muharrir: S. Meliquziyeva

Musahhih: M. Yunusova

Sahifalovchi: A. Isxoqov

Nashr. lits № 2244. 25.08.2020 y.

Bosishga ruxsat etildi 17.12.2023 y.

Bichimi 60x84 1/16. Ofset qog‘ozи. “Cambria”

garniturasi. Hisob-nashr tabog‘i. 7,625.

Adadi 100 dona. Buyurtma № 1655632 .

«Nazokathon ziyo print» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

ISBN 978-9910-9595-1-6

A standard one-dimensional barcode representing the ISBN number.

9 789910 959516